**O`zbekiston Respublikasi**
**Oliy va O`rta Maxsus Ta`lim Vazirligi**
**Buxoro Davlat universiteti**

**Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti**

**Turizm kafedrasi**

**Himoyaga ruxsat etildi**

**Kafedra mudiri ______________ i.f.n. dots. H.R.HAMROEV**

**«_____»_________________2015 – yil**

***Qo`l yozma huquqida***

***UDK***

*Xayrullayeva Nilufarbegim Nematillo qizi*

# Mavzu: “EKOLOGIK TURIZMDA TUROPERATORLIK XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI(BUXORO HUDUDI MISOLIDA)”

**5A610302 – Turoperatorlik xizmatini tashkil etish mutaxassisligi**

**MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI OLISH UCHUN**

**YOZILGAN DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: __________________ i.f.d., professor B.N.Navro`z-zoda**

**Himoya sanasi: D.A.K.ning bahosi**

**«____»___________2015 – yil ___________________**

**D.A.K.ning xulosasi_______________________________________________**

**Buxoro – 2015.**

# O`zbekiston Respublikasi
# Oliy va O`rta Maxsus Ta`lim Vazirligi
# Buxoro Davlat universiteti
# Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti
# Turizm kafedrasi

**Mutaxassislik: 5A610302 – Turoperatorlik xizmatini tashkil etish**

**"Tasdiqlayman"**

**Kafedra mudiri___________Hamroyev H.R.**

**«____»_____________2013 – yil.**

***Xayrullayeva Nilufarbegim Nematillo qizi***

# *T O P SH I R I Q*

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi: "Ekologik turizmda turoperatorlik xizmatlarini tashkil etishning o`ziga xos xususiyatlari"**

**1.Universitet bo`yicha buyruq bilan tasdiqlangan______________________**

**2.Magistrlik dissertatsiyasining magistrant tomonidan topshirish muddati____________**

**3.Tushuntirish xatinig tarkibi__________________________________________________**

**Magistrlik dissertatsiyasiga tegishli savollar ro`yxati: ______________________________**

___________________________________________________________________________

___________________________________________________________________________

**4.Grafik materialning miqdori (muhim chizmalarning ko`rsatkichi bilan)**

___________________________________________________________________________

**5.Ilmiy maslahatchi: _________________ i.f.n., dots. Tadjiyeva S.U.**

**6.Ilmiy rahbar: _________________ i.f.d.,professor B.N. Navro'z-zoda**

**7.Magistrlik dissertatsiyasini topshirish sanasi_____________________**

**8. Magistrlik dissertatsiya ijroga qabul qilindi_____________________**

**Magistrant imzosi __________________**

**Kafedra mudiri imzosi ________________**

Eslatma: Bu vazifa tugallangan magistrlik dissertatsiyasiga ilova

**Buxoro Davlat universiteti ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti 5610200 – “Mehmonxona xo`jaligini tashikil etish va boshqarish” yo`lanishi 3 – 1 MX 11 guruhi talabasi Djurayev Jamshidning *"Milliy hunarmandchilik – turistlarni jalb qilish omili sifatida"* mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**TAQRIZ**

Bitiruvchi Djurayev Jamshid tomonidan tayorlangan bitiruv malakaviy ishi ***Milliy hunarmandchilik –turistlarni jalb qilish omili sifatidaning*** nazariy va amaliy jabhalarini o`rganishga bag`ishlangan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydanilgan adabiyotlar ro’yxatidan, ingliz tilida annotatsiya va ilovadan iborat. Uning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanadi; uning yoritilish darajasi ochib beriladi, izlanishning maqsad va vazifalari shakllantiriladi, olingan natijalarning ahamiyati aniqlab olinadi; asosiy xulosalarining realizastiyasi bo’yicha axborotlar keltiriladi.

Birinchi bob O`zbek Milliy hunarmandchiligining jamiyatda tutgan o`rni deb nomlangan bo`lib, unda hunarmanchilikning turlari, tarixi va rivojlanishi, hunarmandchilik usullari va foydalaniladigan buyumlar, Buxoroda hunarmandlar mahallalari o’rganib chiqilqan ва iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati aniqlangan.

Ikkinchi bob “Turizmda milliy hunarmandchiligimizning tutgan o`rni” deb nomlanib, unda Milliy hunarmandchilikning turizmda tutgan o`rni o`rganib chiqilgan.

Uchunchi bob Buxoro viloyati miqyosida Milliy hunarmandchilikning rivojlanish tendensiyalari deb nomlangan bo’lib, unda Buxoro viloyatida milliy hunarmandchilikning rivojlanish holati o’rganilib chiqilgan, xorijiy turstlarning so’rovnomasi tahlili amalga oshirilgan va Buxoroning sayyohlik tayanchi o`rganib chiqilgan.

Umuman olganda Djurayev Jamshid tomonidan tayyorlangan bitiruv malakaviy ishi nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo`lib, uni bitiruv malakaviy ishini himoyasiga tavsiya etaman.

# MUNDARIJA

**Kirish**……………………………………………………**18**
**I bob. Ekologik turizmni rivojlantirishining nazariy asoslari...24**
**1.1.** Ekologik turizmning tushunchasi,vazifalari va ahamiyati....**24**
**1.2.** Ekologik turizmning o`ziga xos xususiyatlari va turlari.......**31**
**1.3.** Ekologik turizm bozorida turoperatorlik faoliyatining asosiy funksiyalari…………………………………………………**38**
**I bob** bo`yicha xulosa ……………………………………………**48**
**II bob. O`zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishning istiqbolli jabhalari...........................................................49**
**2.1.** O`zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari.........................................................................**49**
**2.2.** O`zbekistonda milliy va mahalliy ekoturizm resurslari........**59**
**2.3.** O`zbekistonda ekoturizmni rivojlanish holati......................**67**
**II bob** bo`yicha xulosa ……………………………………………**80**
**III bob.Buxoro viloyatida ekologik turizmga ixtisoslashgan turoperatorlik xizmatlarini tashkil etish…………………………81**
**3.1.** Buxoro viloyati bo`yicha innovatsion ekoturistik marshrutini ishlab chiqish...................................................................**81**
**3.2.** "Ko`hna sahrodagi yangi dunyo" ekoturistik marshrutidagi turoperatorlik xizmatlari va ularni tashkil etish shakllari......**94**
**3.3.** "Buxoro" ekoturistik mahsulotlarini marketingli boshqaruvini tashkillashtirish...................................................................**97**
**3.4.** Ekologik turoperator katalogi va turli ekoko`rgazmalarga qatnashish.........................................................................**100**
**III bob** bo`yicha xulosa ……………………………………….**101**
**Xulosa.........................................................................102**
**Adabiyotlar ro`yxati.......................................................106**
**Ilovalar.......................................................................121**

# KIRISH

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** Dunyo xo`jaligi tarkibida eng jadal sur`atlarda rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohalaridan biri turizmdir. Butun jahon turizm tashkilotining ma`lumotiga ko`ra 2013 - yilda xorijiy va mahalliy turistlar soni 2 mln kishiga yetdi. Bu esa 2012 - yilga nisbatan o`sish sur`ati 23,5 foizga oshganligini ko`rsatadi. Shuningdek, 2012 - yilda sayohat turizmi YaIM ning 872,8 mln so`m (YaIMning 1,0%)ni tashkil yetgan bo`lsa, 2013 –yilda 1,8-2% ga oshdi[1]. Bu yurtimizdagi boy turistik resurslardan samarali foydalanganlik va turistik madaniyatning rivojlanganlik natijasidir.

«O`zbekistonning dam olish va salomatlikni tiklash imkoniyatlari, — degan edi Prezident Islom Karimov - sayohat marshrutlarining xilma – xil turlarini tashkil etishga va sayohatchilarni butun yil davomida qabul qilishga sharoit yaratadi». Ekoturizm – insoniyatning tabiat bilan uyg`unlikda sayohat qilish va tabiat noz – ne`matlaridan bahramand bo`lish maqsadida qilgan qilgan sayohatidir.

O`zbekistonda xorijiy mehmonlarni jalb qilishda ko`plab resurslar mavjud: hayvonot va o`simliklar olamiga boy bo`lgan cho`l va qo`riqxonalar, tog` cho`llari va daryolar, 300 dan ortiq shifobahsh mineral suv manbalari - turizmni faol ravishda rivojlantirish uchun katta ahamiyatlidir.

Yurtimizning o`ziga xos ekologik potensialidan yetarli darajada foydalanilmayotganligi, ko`plab ekoturistik manzilgohlarning imkoniyatlaridan amalda qo`llanilmayotganligi va yoshlarda ekologik turizm madaniyatini shakllantirish, tabiatga bo`lgan muhabbatni uyg`otish bo`yicha chora – tadbirlarni ishlab chiqishning zarurligi **mavzuning dolzarbligini** belgilab beradi.

Ayni paytda mamlakatimizda sayyohlikning ekoturizm, ekstremal, ma`rifiy, madaniy va jismoniy sayohatlar kabi turlari ham izchil rivojlanmoqda. Sayyohlar orasida alpinistlar, chang`i sportiga qiziquvchilar ko`paymoqda. Yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar tarixiy, madaniy, diniy sohaga oid ko`plab foydali

---
[1] “O`zbekturizm” 2013-yil statistika bluteni, 4-5 bet.

va qiziqarli ma`lumotlarga ega bo`lishi mumkin. Shuningdek, Farg`ona vodiysi, Bo`stonli, Zomin, Urgut, Kitob, Boysun, Qizilqum kabi hududlarda tog`, sport, yekoturizm va rekreatsiyani rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlar bor. Ammo bu hududlardagi ekoturistik tabiiy resurslardan samarali ishlatilmayotganligi, hamda hudud doirasida zamonaviy marshrutlarni yo`qligi va xizmat ko`rsatish darajasining segmentlashmaganligi dolzarb muammolarga olib kelmoqda.

**Tadqiqot ob'yekti va predmeti.** Tadqiqot obyekti – Buxoro viloyatidagi turoperatorlik firmalari va ekologik turizmga bog`liq tashkilotlar: Buxoroturizm, Jayron ekomarkazi, Dengiz ko`l, Qora qir hududlari va ulardagi ekoturistik manzilgohlar bo`lib ,tadqiqot predmeti – Buxoroi sharifdagi ekologik turizmga ixtisoslashgan turoperatorlik xizmatlari, ekoturizmni yurtimiz bo`ylab rivojlantirish uchun zaruriy innovatsion turistik dasturlarning yaratilish texnikasi va noan`anaviy ekoturistik komplekslarni qurish loyihalari hisoblanadi.

**Tatdqiqotning maqsadi va vazifalari.** Tadqiqot ishining asosiy maqsadi hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta`minlash uchun tabiatdan turistik yo`nalishda oqilona foydalanish. Yurtimizda katta potentsialga yega ekoturistik hududlarda ekoturizm xizmatlari ko`rsatilishini yanada takomillashtirish bo`yicha ilmiy – nazariy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiq etish.

Shu sababdan ishga quyidagi vazifalar qo`yiladi va yechiladi:

- Ekoturizm tushunchasi, mohiyati va uning turizmda tutgan o`rnini yoritish;
- Aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o`stirish;
- O`zbekistondagi yekoturistik muhit va uning kelajak istibollarini tahlil qilish;
- Ekoturizmga oid ijobiy harakatlarni rag`batlantiruvchi omillarni yaratish;
- Yangidan – yangi turistik marshrutlarni yaratish, ulardagi xizmatlarni segmentlash;
- O`zbekiston qo`riqxonalardagi mavjud barcha resurslarni hamda kamchiliklarni o`rganish;

- O`zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy – huquqiy normativlari dasturini ishlab chiqish;
- O`zbekistonda milliy va mahalliy ekoturizm resurslaridan foydalanish bo`yicha keng ko`lamli dastur ishlab chiqish va uni keyingi 10 yillikda amalga oshirish;
- Buxoro viloyati bo`yicha kombinatsion ekoturistik marshrutini ishlab chiqish;
- “Ko`hna sahrodagi yangi dunyo” ekoturistik marshrutidagi turoperatorlik xizmatlari va ularni tashkil etish shakllarini ishlab chiqish;
- “Buxoro” ekoturistik mahsulotlarini marketingli boshqaruvini tashkillashtirish;
- Ekologik turoperator katologi va turli ekoko`rgazmalarni yaratish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**O`zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy – huquqiy normativlari dasturini ishlab chiqish, O`zbekistonda milliy va mahalliy ekoturizm resurslaridan foydalanish bo`yicha keng ko`lamli dastur ishlab chiqish, Buxoro viloyati bo`yicha “Ko`hna sahrodagi yangi dunyo yohud tabiat tuhfasi” nomli innovatsion ekoturistik loyihasini ishlab chiqish, “Ko`hna sahrodagi yangi dunyo” ekoturistik marshrutidagi turoperatorlik xizmatlari va ularni tashkil etish shakllarini ishlab chiqish va “Buxoro” ekoturistik mahsulotlarini marketingli boshqaruvini tashkillashtirish ishlari mukammal ilmiy tadqiq qilish zarurdir. Bizning ishimizda ekologik turizm bo`yicha yaratilmagan dasturlarni kombinatsion tartibda ishlab chiqish va ekologik turoperator katologi va turli ekoko`rgazmalarni yaratishga alohida e`tibor qaratishdan iborat.

**Tadqiqot mavzusi bo`yicha adabiyotlar tahlili.** Ilmiy ishning nazariy va uslubiy jihatlari, xorijiy olimlardan K.Atishov, Yegorenkov L.I, D.Fennel, N.N. Barodin, G.C.Gujin, M.Y.Belikov, B.V.Klimenko, A.G.Nikolayeviskiy, N.F.Reymers, F.R.Xitilmark, V.V.Xrabovchenko, B.A.Achibekov, M.A.alkadirov, T.V.Bachkaryova, A.B.Kosalapoye, I.G.Miz, A.V.Drazdov va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritib berilgan.

O`zbekistonda ekologik turizmni o`rganishda Roman Bardarchuk, D.R. Suyarov, M.X.Xamitov, G.R.Xidirova, N.O`.Mahmudova, Sh.Jo`rayeva, I.Ibrohimov, Z.Izzatullayev, A.Nig`matov, M.Mamanazarov, Y.Sh.Shodmetov, N.To`xliyev, T. Abdullayeva, M.Xoshimov, A.Xudoyberdiyev, M.Mamatqulov va boshqalarning hissasi katta bo`lib, ular mazkur sohaning istiqbolli imkoniyatlari, uni boshqarishning nazariy va amaliy asoslari hamda rivojlantirish yo`llarini o`zlarining asarlarida yoritganlar.

Bu borada Sh.Sh. Sharipovaning Ekologik truizmni rivojlantrishda marketingning o`rni, Sh.Negmatovning Turistik rekratsiya hududlaridan foydalanishning ekologik – iqtisodiy xususiyatlari mavzusidagi bitiruv malakaviy ishlari, U.A.Xudoyberdiyevning O`zbekistonda tabiati alohida muhofaza qilinadigan joylarda ekoturizmni rivojlantirish yo`llari mavzusidagi akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasini alohida ko`rsatish mumkin[2].

Biroq, O`zbekiston olimlari va amaliyotchilarining ilmiy asarlarida ekologik turizmga ixtisoslashgan turoperatorlik xizmatlarining nazariy,tashkiliy va umumiy muammolari o`z aksini topmagan. Ekologik turizmda turoperatorlik xizmatlarini tashkil etishning o`ziga xos xususiyatlarining mamlakatimizdagi turizmga oid adabiyotlarda yetarlicha yoritilmaganligi magistrlik dissertatsiya mavzusining dolzarbligidan dalolat berib, uning bajarilishini taqozo etadi.

**Tadqiqotda qo’llanilgan metodikaning tavsifi.** O`zbekiston Respublikasining sohaga oid qonunlari, O`zbekiston Respublikasi prezidenti asarlari, farmon va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari, “O`zbekturizm”MK tomonidan ishlab chiqilgan me`yoriy hujjatlar, “Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi” qonunlari, O`zbekiston Respublikasining “O`rmonlar to`g`risida”gi qonuni kabilarga tayaniladi. Unda taqqoslash, analiz va sintez, SWOT – tahlili, so`rov-kuzatuv usul va uslublardan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Ishda “Ko`hna sahrodagi yangi dunyo” ekoturistik marshrutidagi turoperatorlik xizmatlari va

---

[2] Sharipova Sh.Sh. “Ekoturizmni rivojlantirishda marketingning o`rni”. BMI. - B.:-2014, 81b. Sh.Negmatovning “Turistik rekratsiya hududlaridan foydalanishning ekologik – iqtisodiy xususiyatlari”. BMI. - S.:-2012, 49b. U.A.Xudoyberdiyevning “O`zbekistonda tabiati alohida muhofaza qilinadigan joylarda ekoturizmni rivojlantirish yo`llari”. Avtoref.dis...k.e.n.Samarqand-2013.94b.

ularni tashkil etish shakllarini ishlab chiqish misolida Buxorodagi milliy va mahalliy ekoturizm resurslaridan foydalanishimiz, O`zbekiston turizm bozori uchun ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga egaligini ko`rsatadi. Tadqiqot natijalari, undagi tahlil usuli, Buxoro hududida ekoturizmni rivojlantirish istiqboli va ekologik turoperator katalogini yaratishning bugungi kundagi nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy izlanishnig natijalaridan ijtimoiy – iqtisodiy fakulteti, turizm yo`nalishida o`tiladigan “Ekologik turizm”, “Turizmda innovatsion loyiha” va “Turoperatorlik xizmatlarini tashkil etish” fanlaridan mashg`ulot o`tganda foydalanish mumkin. Chiqarilayotgan ilmiy xulosalar ekologik turizmga ixtisoslashgan turoperatorlik xizmatlarini tashkil etish uchun to`la ilmiy tahlil qilishda nazariy qo`llanma bo`lishi mumkin.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Qo`yilgan maqsad va vazifalar izlanishning mantig`ini aniqlashda va dissertatsiya tarkibida o`z aksini topdi. Dissertatsiya kirish uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyada 16ta chizma, 10 ta jadval, 20 ta rasm, 1ta ekoturistik loyiha va 1ta ekoturistik dastur keltirilgan.

*Dissertatsiyaning kirish qismida* mavzuning dolzarbligi, uning o`rganilganlik darajasi, ishning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi, tadqiqot maqsadi, nazariy, metodologik va uslubiy asoslari, predmeti, ob`ekti, ilmiy yangiligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi hamda dissertatsiyaning aprobatsiyasi bo`yicha ma`lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning *“Ekologik turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari”* deb nomlangan birinchi bobida ekologik turizmning tushunchasi, vazifalari va ahamiyati, ekologik turizmning o`ziga xos xususiyatlari va turlari hamda ekologik turizm bozorida turoperatorlik faoliyatining asosiy funksiyalari ochib berilgan.

*“O`zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishning istiqbolli jabhalari”* deb nomlangan ikkinchi bob O`zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari, O`zbekistonda milliy va mahalliy ekoturizm resurslari hamda O`zbekistonda ekoturizmni rivojlanishi holati mavzulari chuqur ilmiy tahliliga bag`ishlangan.

*“Buxoro viloyatida ekologik turizmga ixtisoslashgan turoperatorlik xizmatlarini tashkil etish”* deb nomlangan uchinchi bobda jozibador ekoturistik manzillarni shakllantirish yo`llari, unda mahalliy va milliy turistik manzil boshqaruvini tashkil etish hamda Buxoro viloyati bo`yicha “Ko`hna sahrodagi yangi dunyo yohud tabiat tuhfasi” nomli innovatsion ekoturistik marshrutini ishlab chiqish, “Ko`hna sahrodagi yangi dunyo” ekoturistik marshrutidagi turoperatorlik xizmatlari va ularni tashkil etish shakllari, “Buxoro” ekoturistik mahsulotlarini marketingli boshqaruvini tashkillashtirish, shuningdek ekologik turoperator katalogi va turli ekoko`rgazmalarga qatnashish bo`yicha amaliy rejalar ishlanmasini joriy qilish bo`yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

*Dissertatsiyaning xulosa qismida* tadqiqot jarayonida olingan asosiy xulosa va takliflar berilgan.

**Magistrlik dissertatsiya bo`yicha chop etilgan ilmiy ishlar:** Ilmiy tadqiqot natijasi bo`yicha 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta xorijiy ilmiy jurnalda, 1tasi xorijda va 7 tasi konferensiya materiallari va tezislarida, 2 tasi ilmiy elektron jurnallarda chiqqan(barcha maqolalar ilovada keltirilgan).

Shuningdek,mavzu doirasida “Ko`ha sahrodagi yangi dunyo yohud tabiat tuhfasi” innovatsion ekoturistik kompleksi loyihasi ishlab chiqilib, Innovatsion g`oyalar,texnologiyalar va loyihalar VII Respublika yarmarkasida “Eng yaxshi innovatsion loyiha” nominatsiyasi bilan taqdirlanib,davlat grantlariga topshirish yo`llanmasini qo`lga kiritdim.(barcha ishlardan namunalar ilovada keltirilgan)

# I BOB. Ekologik turizmni rivojlantirishining nazariy asoslari.

## 1.1.Ekologik turizmning tushunchasi,vazifalari va ahamiyati

Ekoturizm – insoniyatning tabiat bilan uyg`unlikda sayohat qilish va tabiat noz – ne`matlaridan bahramand bo`lish maqsadida qilgan sayohatlaridir. Sayohat davomida turli xil sport o`yinlari bilan shug`ullanish, sog`lomlashtirish, ma`rifiy – ma`naviy ishlarni amalga oshirish orqali – hordiq chiqarish mumkin.

Ekoturizm terminini birinchi bo`lib V.V. Xrebovchenko fanga kiritgan bo`lib, eng to`gri tushunchani 1997-yil G.S. Gujin, M.Yu. Belikov va E.V. Klimenkolar bergan: “ ***Ekoturizm asosida tabiatni muhofaza etish tashvishlari yotadi***”.[3] Bunday sayohatda oldingi kam sonli sayohatchilar guruhini turli proyektlarni amalga oshirish uchun qilgan ishlari tushuniladi. Bu tushuncha – xalqaro ekoturizm jamiyatining tushunchasiga ham to`g`ri kelib unda yozilishicha, ekoturizm – “tabiat zonalariga mas`ul sayohat bo`lib,unda mahalliy aholining ijtimoiy ahvoli muhofaza etiladi.

Keyinchalik, meksikalik ekolog ***Ceballos-Lascurain*** tomonidan XX asrning 80-yillarida konferensiya jarayonida ishlatilgan termin dunyo e`tirofiga sazovor bo`ldi,hamda insonlarni ekoturizmga bo`lgan qiziqishini kuchaytirdi.

***Ceballos-Lascurain nazariyasiga ko`ra, inson rekriatsion yoki ekologik sayohat orqali katta garmonal kuchga ega bo`ladi.***

Bu nazariya ekoturizm uchun qo`yilgan ilk qadam bo`lib, shundan so`ng, sayyohlarda ekologik sayohatlarga chiqishga bo`lgan talablar ortdi. Endi nafaqat o`zlari tashrif buyuradigan shaharning madaniyati bilan, balki uning tabiatiga bo`lgan qiziqishlari ham paydo bo`ldi.

Shundan so`ng, Rossiyada Baykal bo`ylab temir yo`l sayohati uyushtirildi.

XX asr oxirlariga kelib esa ekoturizm haqidagi ta`riflar yanada ko`payib bordi.

***Avstraliyaning milliy ekoturizm strategiyasida*** ekoturizm - tabiatga yo`naltirilgan turizm, deb ifodalangan. Ekologik barqarorlik qoidalaridan kelib chiqqan tarzda u o`z ichiga ekologik ta`lim va tarbiyani qamrab oladi.

***Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi*** (TMQXI) ekoturizmni «atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, unga sayr qilganda «ayab» ta`sir ko`rsatish yo`li bilan madaniy va tabiiy merosni o`rganish hamda zavqlanish, nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarga ekologik mas`uliyatli sayohat», deb tushuntiradi[4].

---

[3] Murodxon Hoshimov “O`zbekiston ekologik turizmi”, Monografiya, «Zarafshon» nashriyoti DK, Samarqand – 2009. 8-10-bet.

[4] A. Nig`matov, N. Shomurodova “Ekoturizm asoslari” - T.:< Toshkent- Iqbol> 2007-yil. 10-bet.

TMQXIga yaqin tushuncha "*Ekoturizm jamiyati"* ta`rifida mavjud. U ekoturizmni «mahalliy aholi va undagi tabiatni muhofaza qilishga ko`maklashuvchi tabiiy hududlarga mas`uliyatli sayohat», deya izohlaydi[5].

***Butun jahon yovvoyi tabiat jamg`armasi ekoturizmni*** «atrof-muhitni muhofaza qiluvchi tabiiy turizmdir» deydi.

O`zbekistonda xalqaro Ekosan jamg`armasi huzurida «Ekosan-tur» markazi 2002-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. U barcha davlat va nodavlat organlari bilan birgalikda respublikamizning go`zal tabiat maskanlariga sayohatlarni uyushtirish, fuqarolarimizni o`zga yurt tabiati bilan tanishtirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan. «Ekosan-tur» xalqaro markazi «Ekoturizm va barqaror rivojlanish» mavzusida davlat idoralari, shaxsiy turoperatorlik va kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, diplomatik korpus hamda xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari ishtirokida 2005-yil mart va 2006-yil iyul oylarida Toshkent shahrida xalqaro konferensiya hamda ommaviy bayramlarni o`tkazdi[6].

Konferensiyada kelajakda O`zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi va ular tegishli davlat organlari hamda turistik kompaniyalarga mazkur tadbirlarni amalga oshirish uchun taqdim etildi.

Ekoturizm o`z mazmun va mohiyatiga ko`ra shaxslarning turg`un yashab turgan joylaridan muayyan (ekologik) maqsadlarni ko`zlagan holda o`zga tabiiy obyekt (joy va makonga) ga qilgan sayohatlari. Bu o`rinda ikki masalaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq. Bular *sayohatchi*, *sayyohlik* tushunchalari kishilarning qanday harakatlari aynan sayyohlikka kiradi?

(O`zbekiston Milliy ensiklopediyasida unga turizm deb ta`rif berilgan[7]) ***Kishi sayohatchi bo`lishi uchun doimiy yashash joyidan pul to`lanadigan faoliyat bilan shug`ullanmagan holda 24 soatdan 6 oygacha bo`lgan uzluksiz muddatga vaqtinchalik yashash joyiga (mamlakatga) borib kelishi yoki u yerda kamida bir tunni o`tkazishi zarur***.

---

[5] Козырев В.М., Зорин И.В., Сурин А.И. и др. " Менеджмент туризма ", "Экономика туризма".Учебник. - М: Финансы и статистика, 2004. -253- с.
[6] O`zbekiston Milliy Axborotnomasi, "Ekologik turizm istiqbollari", O'zA, Roman Bondarchuk, 02.11.2012

***Ekologik sayyohlik*** - zamonaviy turizmning yangi yo`nalishlaridan[3] biri bo`lib, oxirgi o`n yillikda butun dunyoda keng miqyosda rivojlanmoqda. Ma`lumotlarga qaraganda u sayyohlik bozorining 10—20% ini qamrab olgan, o`sish sur`ati esa umumiy turizm industriyasining o`sish sur`atidan 2—3 marotaba yuqori, shuningdek, ekoturizm atrof-muhit muhofazasining samarali vositasi va barqaror rivojlanishning mustahkam «kaliti»dir[8]. Ekoturizm birinchi navbatda tabiat bilan bevosita muloqotda bo`lishga, uning go`zalligini va salbiy hodisalarini his etishga, tabiat qo`ynida faol dam olish va ekotizimlarni tiklash inson uchun qanchalik katta ahamiyat kasb etishini anglashga qaratilgandir[9] .

Ekoturizmning maqsadi ham, - hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishni ta`minlash uchun turistik yo`nalishlarda tabiatdan oqilona foydalanish, uni qayta tiklash va muhofaza qilishdir.

«Bugun, - degan edi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov[10], — XXI asr bo`sag`asida ekologik xavfsizlik, inson bilan tabiat munosabatlarini to`g`ri yo`lga solish muammolari har qachongidan ham dolzarb masala bo`lib turibdi.Zero, bu muammoning yechilishi barcha xalqlarning manfaatlariga daxldordir, jahon sivilizatsiyasining buguni va kelajagi ko`p jihatdan shunga bog`liqdir».

Ekoturizmning maqsadini amalga oshirish uchun ekologik jihatdan rivojlangan davlatlar, xalqaro tashkilotlar va milliy qonunchilik manbalari

quyidagi vazifalarni bajarishni talab etadi:

• *ekoturistik fan, ta `lim va amaliyotning nazariy asoslarini ishlab chiqish;*

• *aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o `stirish;*

• *ekoturizm yo `nalishidagi ta `lim va tarbiyani yo `lga qo `yish;*

• *ekoturizm bo `yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash;*

---

[7] O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — T.: «O'zME davlat ilmiy nashr.»,2004,7-son. 428-b.

[8] Yuridik ensiklopediya. — T.: «Sharq», 2001. 457-b.

[9] *Ердавлетов С.Р.* География туризма: история, теория, методы, практика. — Алматы: «Изд КазНУ», 2000. — 336 с.

[10] *1.A. Karimovning.* YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida 1998-yil 6-noyabrda so'zlagan nutqidan // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - T.: «O'zbekiston», 1999. 193-206-b.

• *ekoturizm industriyasini shakllantirish uchun maxsus qonunlarni ishlab chiqish va ularning huquqiy mexanizmini yaratish;*

• *ekoturizm obyektlarining kadastrini o`tkazish va ularni har tomonlama baholash;*

• *ekoturizm monitoringini yuritish va istiqbolini belgilashni yo`lga qo`yish;*

• *milliy davlat hududini ekoturizm bo `yicha rayonlashtirib chiqish;*

• *ekoturizm bilan shug`ullanuvchi, yuridik shaxs maqomiga ega bo `lgan maxsus turdagi subyektlar faoliyatini yo`lga qo`yish va ularni huquqiy jihatdan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlarini belgilash;*

• *davlatlarning va xalqaro hamjamiyatning ekoturizmga oid taktik reja va strategik dasturlarini ishlab chiqish va ularga yuridik maqom berish;*

• *ekoturizmga oid ijobiy harakatlarni rag`batlantiruvchi omillarni yaratish;*

• *huquqbuzarlarga nisbatan iqtisodiy javobgarlik sanksiyalarini kuchaytirish*

Ekoturizm obyekti sifatida sayyohlarning o`zlari yashamaydigan, turizm uyushtirilishi mumkin bo`lgan va ularning ongiga bog`liq bo`lmagan obyektiv borliq:

• *tabiat komponent (unsur)lari;*

• *tabiiy tizim (sistema)lar;*

• *tabiat majmua (kompleks)larini* olish mumkin.

Ushbu tabiat obyektlari ikki ko`rinishda namoyon bo`ladi(1.1-chizma)

**EKOTURIZM OBYEKTI***







| Antropogen o`zgarmagan | Antropogen o`zgargan |
|---|---|
| **Tabiat yodgorliklari**<br>*- sharsharalar*<br>*- g`orlar*<br>*- noyob turdagi o`simlik dunyosi*<br>*- noyob turdagi hayvonot dunyosi* | **Shaklan o`zgartirilgan tabiat yodgorliklari**<br>*- sun'iy yaratilgan sharsharalar*<br>*- qo`lga o`rgatilgan yovvoyi hayvonlar…* |
| **Tabiat majmualari**<br>*- biosfera qo`riqxonalari*<br>*- qo`riqxonalar*<br>*- buyurtma qo`riqxonalar*<br>*- milliy tabiiy bog`lar* | **Tashkillashtirilgan tabiat majmualari**<br>*- dendrologik bog`lar*<br>*- hayvonot bog`lari*<br>*- botanika bog`lari* |
| **Tabiiy tizimlar**<br>*- o`rmonlar*<br>*- baland, o`rta, past tog`lar*<br>*- turli landshaftlar*<br>*- dengizlar, ko`llar…* | **Tizimlashtirilgan tabiat**<br>*- o`zgartirilgan suv inshootlari va akvatoriyalari*<br>*- madaniylashtirilgan landshaftlar…* |

***Manba:** Tadqiqot natijasida olingan ma`lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Turizmning global axloq kodeksida ta`kidlanishicha, "...turistik infrastruktura obyektlari va turistik faoliyat turlarini shunday rejalashtirish kerakki, ekosistemalar va biologik turli-tumanlikni tashkil qiluvchi tabiiy merosni himoya qilish ta`minlansin hamda yo`qolib ketish xavfi bo`lgan fauna va flora turlari muhofaza qilinsin; turistik jarayonlarning ishtirokchilari va ayniqsa, professional xodimlar o`zlarining faoliyatlariga qo`yiladigan ayrim cheklashlar va me`yorlarga ko`nikishlari lozim. Bu gaplar asosan tabiiy parklar yoki

qo`riqlanadigan qo`riqxonalar va alohida nozik joylardagi faoliyat turlariga tegishli”[11].

Hududlarning noyob turlari va ekosistemalarini mahalliy jamoalar uchun hayotiy resurs deb qarash mumkin, shuning uchun ularni muhofaza qilish mahalliy madaniyatni himoya qilish bilan uzviy bog`liq. Shu orqali ekoturizm prinsiplari vujudga keldi(1.1-jadval).

## 1.1-jadval.Ekoturizm prinsplari*

| Prinsiplar | O`ziga xos xususiyatlar |
|---|---|
| **Ekologik va ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo`lgan salbiy oqibatlarni mumkin qadar kamaytirish** | □ Joiz rekreation yuklanishlar chegarasidan oshilmaydi;<br>□ Turizmning rivojlanishi puxta rejalashtiriladi, nazorat qilinadi va boshqariladi;<br>□ Tashrif buyuriladigan tabiiy hududlar uchun ishlab chiqilgan xulq-atvor qoidalariga rioya qilinadi;<br>□ Turistlar foydalanadigan transport ekologik jihatdan beziyon;<br>□ Chiqindilar tashlanmaydi, lekin maxsus yig`iladi, hududdan olib chiqib ketiladi va ekotexnologik jihatdan qayta ishlanadi;<br>□ Qo`nalg`alar va gulxanlar faqat maxsus jihozlangan joylarda tashkil etiladi;<br>□ Jonli tabiat ob`ektlaridan yasalgan sovg`alarni xarid qilishga yo`l qo`yilmaydi;<br>□ Gullar, dorivor giyohlar va har qanday tabiiy sovg`alar faqat maxsus ruxsat etilgan joylarda teriladi;<br>□ Turistlar to`xtaydigan otellar, kempinglar va kulbalar shunday joylashganki, atrofdagi landshaft normal, ekologik jihatdan barqaror rivojlanishini buzmaydi va uning qiyofasini xunuklashtirmaydi;<br>□ Otellar va kempinglar ekologik jihatdan beziyon materiallardan qurilgan, ularda yashovchilar ortiqcha energiya va suv sarflamaydi, bunda oqava suvlar tozalanadi, boshqa chiqindilar ekologik jihatdan sof texnologiyalar yordamida yo`q qilinadi;<br>□ Turistlar mahalliy madaniy an`analar, odatlar, turmush tarziga hurmat bilan munosabatda bo`ladilar, ularni o`rganish |

[11]А.Худойбердиев. Охрана природы в Узбекистане.Ташкент,1989 г.35-с.

| | |
|---|---|
| | va tushunishga harakat qiladilar. |
| **Tabiatni muhofaza qilishga, mahalliy ijtimoiy va madaniy muhitga ko`maklashish** | □ Turistik faoliyat muhofaza etiladigan hududlar yoki tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini qo`shimcha moliyalashtirish manbalarini ta`minlaydi;<br>□ Turlarning ishtirokchilari tabiatni muhofaza qilish faoliyatida imkoniyat darajasida ishtirok etadi (ko`ngillilar, bolalar ekolagerlari va b.);<br>□ Turizm alohida muhofaza etiladigan hududning mahalliy aholi bilan hamkorligini yo`lga qo`yishga, hududning nufuzini oshirishga ko`maklashadi;<br>□ Alohida muhofaza etiladigan hududning xalqaro aloqalarini kengaytirish. |
| **Ekologik ta`lim** | □ Turistlar tur o`tkaziladigan joy tabiati va u erdagi xulq-atvor qoidalari haqida sayohat boshlanishidan oldin axborot oladilar;<br>□ Turistlar tabiatni asrash uchun o`z javobgarligini teran anglaydilar, alohida muhofaza etiladigan hududdagi xulq-atvor qoidalariga rioya qiladilar;<br>□ Turlar va ekskursiyalar ekologik ta`lim unsurini albatta o`z ichiga oladi;<br>□ Turlarni malakali gid va interpretatorlar o`tkazadi;<br>□ Diqqatga sazovor va ekologik qulay tabiiy va madaniy landshaftlar tashrif ob`ektlari hisoblanadi;<br>□ Dasturga o`quv ekologik so`qmoqlar, tabiat muzeylari va o`lkashunoslik muzeylari, ekotexnologik xo`jaliklarga tashrif va hokazolar kiritiladi;<br>□ Turistlar mahalliy ekologik muammolar va ularni yechish yo`llari, amalga oshirilayotgan tabiatni muhofaza qilish loyihalari bilan tanishadilar;<br>□ Turistlar mahalliy ekologik muammolarni echishda qulay usullar bilan ishtirok etadilar; |
| **Turistik faoliyatda mahalliy aholi ishtirok etishi va undan daromad olishi** | □ Asosan mahalliy mahsulot va ishchi kuchidan foydalaniladi;<br>□ Mahalliy aholi turistik biznesga jalb qilinadi va xo`jalikning o`z an`anaviy shakllarni rivojlantirish imkoniyatini qo`lga kiritadi;<br>□ Ekoturistik faoliyatdan turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlar daromad oladi (ta`sirni kengaytirish Prinsipi), bunda tabiiy muhitni asrash mahalliy aholi uchun foydali tus oladi. |

| | |
|---|---|
| **Iqtisodiy samaradorlik va mintaqalar barqaror rivoj lanishiga hissa qo`shish. Turistik faoliyatning rivojlani-shiga kompleks yondashuv** | □ Puxta rejalashtirish, monitoring va boshqarish;<br>□ Mintaqaviy rivojlanish mahalliy rejalariga ekoturizmni kiritish;<br>□ Turli soha tashkilotlarining yaqin hamkorligi;<br>□ Turizmdan olinadigan daromadlar mahalliy byudjetdan to`liq olib qo`yilmaydi, uni to`ldirishga, mahalliy iqtisodiyotni qo`llab-quvvatlashga ko`maklashadi. |

***Manba:** Hamidov O.H., Norchaev A.N. Ekoturizm. - Darslik. – T.: TDIU, 2011. 13-15b.

Xullas, tabiat va turizmning o`zaro munosabati to`g`risidagi qarashlar, ya`ni bu moddiy dunyoda sayyohlikning o`rni, ahamiyati, mazmuni va mohiyatini aks ettiruvchi dunyoqarashlar tizimining asosiy qoidalari ekologik turizm prinsiplarning bosh mohiyatidir.

## 1.2. Ekologik turizmning o`ziga xos xususiyatlari va turlari

Ekologik turizmning boshqa turizm turlaridan farqi shundaki,unda insoniyat o`zi uchun yangi bir dunyo yaratadi. Sayohat davomida tomosha qilinadigan har hudud sayyoh uchun mo`jikor manzara sifatida gavdalanadi va sayohat davrida o`z ruhiyatidagi yengillikni his etadi desak adashmagan bo`lamiz.

Ekoturizmning rivojlanishi o`z navbatida hududlarga quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy naf orqali yuzaga keltiradi:

- ☑ Turizm sanoati singari boshqa qo`shma tarmoqlarda mahalliy aholi uchun qo`shimcha ish o`rinlarining yaratilishi;
- ☑ Mahalliy iqtisodiyotning daromadli qismlarining ortishi (mehmonxona xo`jaligi, umumiy ovqatlanish, transport komplekslari, suvenir ishlab chiqarish, xalq xo`jaligi va b.);
- ☑ Valyuta ayirboshlashni rag`batlantirish;
- ☑ Qo`shimcha investitsiyalar va ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bo`lgan talabning ortishi qishloq xo`jaligi hamda oziq - ovqat sanoatining rivojlanishiga olib keladi;

☑ Yashash sharoiti, komunal xo`jaligi hamda transport tashkilotlari xizmatining yaxshilanishi;

☑ Turistik resurslardan(turistik e`tiborga molik maskanlar) ratsional foydalanishga o`z navbatida tabiiy himoyalanadigan hududlarga ham investitsiyalar kiritilishi;

☑ Yer maydonlarini o`z holicha tabiiy saqlashga bo`lgan talab orqali intensive qishloq xo`jaligi yuritish;

☑ Global kommunikatsiyaning rivojlaishi;

☑ Turistik hamjamiyatning davomli e`tibori tufayli mahalliy tabiiy hamda madaniy merosni asrab avaylashga yo`naltirilgan stimul;

☑ Rekreatsion komplekslarining rivojlanishi, bu esa o`z o`rnida mahalliy aholining hordiq chiqarishi uchun ulkan sharoitlar yaratadi.

**1.2-chizma Ekoturizm omillari orasidagi o`zaro mutanosiblik***




***Manba:** Sharipova Sh.Sh. “Ekoturizmni rivojlantirishda marketingning o`rni” mavzusidagi bitiruv malakiy ishi, Buxoro-2014, 14-b.

**1.3-chizma. Ekoturizm tushunchasining asosiy jihatlari***




**Manba:** Sharipova Sh.Sh. "Ekoturizmni rivojlantirishda marketingning o`rni" mavzusidagi bitiruv malakiy ishi, Buxoro-2014, 15-b.

***Qirg`izistonda*** turizm, jumladan ekoturizm davlat dasturi qabul qilingandan so`ng jadal sur`atlarda rivojlana boshladi. Bunga birinchidan, tog`li hududlarda yovvoyi tarzda saqlanib qolgan juda katta maydondagi tabiat komplekslari va uning komponentlari, ikkinchidan xususiy turizm va unga xizmat ko`rsatish sohasining xususiylashtirilishi sabab bo`ldi.

Qirg`izistonda ekspertlar turistlarni quyidagi guruhlarga bo`ladilar:

- Mamlakatga ekoturistik guruhlar sifatida kelayotganlar;
- Qushlarni kuzatish maqsadida kelayotgan turistlar;
- Tabiati bilan mushtarak bo`lgan milliy madaniyat va an`analar muxlislari;
- Tog`larda yayov yoki otlarda sayr qiluvchi ekoturistlar;
- Ekzotik tabiatda baliq ovchiligi ishqibozlari.

Umuman olganda milliy va mahalliy miqyosda ekoturizmni rivojlantirish uchun xorij tajribasini o`rganish, ularni tahlil qilish va mahalliy sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ekoturizmning quyidagi shakllariga duch kelish mumkin:

**1.1-rasm.Turizmning xilma- xil ko`rinishlari***




***Manba:** Tadqiqotlar natijasida olingan ma`lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Har bir ko`rinish o`zgacha sayohat demakdir. Sayyohlar o`zlarini qiziqishlariga ko`ra dasturlarni tanlaydilar. Shu bilan birgalikda ekoturizm va ekoturlarning 4 turga ham ajratilgan. Bular:

- **Ilmiy turizm.**Turistlar ilmiy turizm jarayonida turli xildagi tabiat tadqiqotlarida qatnashib, dala nazoratlarini olib borishadi. Masalan, keng miqyosda mashhur bo`lgan ekoturlar Lotin Amerikasi noyob qushlari harakatlarini kuzatish, Tinch okeanida kitlar ko`payishini nazorat qilish. Qonunan bunday ekoturlar turistik destinatsiyalar qattiq qo`riqlanadigan tabiiy hududlar (QQTH) doirasida: qo`riqxonalar, ta`sirga o`ta sezuvchan maxsus tabiiy hududlar, milliy parklar va tabiiy yogorliklarda kechadi.



Ilmiy turizmda xorijiy ilmiy tadqiqot ekspeditsiya vakillari,

institut va universitetlarning tabiiy-ilmiy fakultetlarda tahsil oladigan talabalari qatnashadilar.

**1.2-rasm. Cho`l hududlaridagi ilmiy tadqiqotlar.**

- **Tabiat tarixiga sayohatlar.**Bu sayohat atrof muhitni va mahalliy madaniyatni o`rganish bilan bog`liq.Bunday turlar o`zining ta`limga aloqadorligi mashhur ilmiy va tematik ekskursiyalar, maxsus ekologik sharoitlar doirasida kechishi bilan farqlanadi. Ular ham ko`proq qo`riqxonalar va milliy parklar hududlarida o`tkaziladi. Aynan bu turda maktab o`quvchilarini uchratish mumkin. Ular o`qituvchilar hamda gidlar yordamida tabiat va uning ajoybotlari to`g`risida ekskursiyalar va suhbatlar o`tkazishadi. Ekoturizmning bu turi ayniqsa Germaniyada mashhur, bekorga uning ikkinchi nomi "Ekoturizm rivojlanishining nemis modeli" emas.



**1.3-rasm. Tog` afsonasini o`rganish.**

- **Sarguzasht turizmi.** Turizmning bu turi faol harakat bilan va tabiat qo`yniga sayohat (outdoor), yangi taassurotlar olish,turistning fiziologik ko`rinishini yaxshillash hamda uning sportdagi yutuqlar natijalariga bog`liq bo`lgan barcha sayohatlarni umumlashtiradi. Bu yerga alpinizm, cho`qqiga chiqish, muzda yurish, speleoturizm, tog` turizm, piyoda turizm, suv, chang`i tog` chang`ilari turizmi, kanyoning, ot turizmi, mountbayk, dayving, paraplanerizm va boshqalar tegishlidir.Yuqoridagi turlarning ko`pchiligi yaqinda paydo bo`lgan bo`lib, tavakkal bilan bog`liq bo`lganligi uchun ekstremal hisoblanadi. Shu bilan birga bular ekoturizmning tez ommalashadigan, qimmat bo`lishiga qaramasdan ko`p foyda keltiradigan turi bo`lib hisoblanadi.Sarguzasht turizmi, turistlarning sarguzashtga chanqog`i

tufayli tabiatni asrab avaylash motivlariga mos kelmasdan, tez- tez "og`ir ekoturizm" deb ham ataladi.

Hozirgi vaqtda sarguzasht turizmi jahon bozorida sarguzasht turizmi bu– oddiygina sarguzashtlar bilan sayohat emas, balki noodatiy elementlar bilan g`ayrioddiy holatlarda sayohat qilish tushuniladi. Ayni o`sha turoperator bozorning ushbu segmentiga mo`ljallab, o`rmon bo`ylab dabdabali piyoda turdan,Antarktida bo`ylab ekspeditsiyalargacha tashkil etishi mumkin.



**1.4- rasm. Tabiat mo`jizalari bo`ylab sayohat.**

**Masalan,** mashhur ingliz turoperatori **"Exodus"** quyidagi sayohat turlarini taqdim etadi[12]:

- **Discovery and Adventure Holiday**–planetamizning uzoq oyoq yetmagan hududlariga faol harakatlar bilan sayohat.
- **Yevropa Destinations**–qisqa va qimmat bo`lmagan turlar Yevropaning QQTH velo yoki piyoda sayohat.
- **Walking and Trekking**–sarguzasht turizmining tipik ko`rinishi. Bu maxsus ekologik yo`laklar orqali piyoda va yuklarsiz bo`ladigan turizm, bunda yuklar maxsus shaxslar yoki ulovlar orqali tashiladi.
- **Multi Activity Holidays**–sezilarli jismoniy yuklamalar talab qiladigan o`rtacha 1 hafta davom etadigan sayohat. Bunga: rafting, kanyoning, speleologing, cho`qqiga tirmashib chiqish, baliq ovi, djipping va h.k.
- **Overland**–bir necha davlatlarga maxsus yashash sharoiti mavjud bo`lgan avtomobillarda sayohat. (Afrika, Janubiy Amerika, Janubiy-Sharqiy Osiya davlatlariga asosan uyushtiriladi.)

---

[12]Ibadullayev N.E., Abdurasulov Sh.. "Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish yo`nalishlari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to`plami "Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda turistik mahsulotlarni shakllantirish imkoniyatlari" Buxoro-2013. 58-63-bet.

➢ **QQTH, Tabiiy qo`riqxonalarga sayohat.** QQTHdagi tabiiy obyektlar va ajoybotlarning yuqori darajadagi unikalligi, ekzotikligi hamda o`ziga tortishi ko`plab turistlarni maftun etib kelmoqda. Masalan, Lotin Amerikasiga tashtif buyuruvchi sayyohlarning 48%i tabiiy qo`riqxonalar maqsadida sayohatga chiqqan. Milliy parklar, qo`riqxonalari boshqaruvchilari ekologik ekskursiyalarni haqiqiy shouga aylantirishyapti.Misol sifatida AQSHdagi Yellotouns milliy parkini keltirish mumkin. U yerda geyzerlar faolligini minutlargacha hisobga olib ekskursiyalar tashkil etiladi.Tabiiy obyektlarga ayniqsa g`orlarda ekskursiyalar turli chiroqlar, musiqa, aborigenlar hayotidan parchalar ko`rsatiladigan teatrlashtirilgan sahnalar hamohangligida tashkil etiladi.



Ekoturizmning ushbu turi Avstraliyada juda rivojlangan, shuning uchun ham uni "Ekoturizm rivojlanishi-ning Avstraliya modeli" deyishadi.

**1.5-rasm. Tabiiy resurslardan foydalanish bo`yicha izlanishlar olib borish**

## 1.3.Ekologik turizm bozorida turoperatorlik faoliyatining asosiy funksiyalari

BTT ma`lumotiga asosan[13], 2013- yil xalqaro sayohatlarning 20%i ekoturizm hisobiga to`g`ri kelgan, Xalqaro resurslar instituti hisob kitoblariga binoan har yili jahon turizmi ekoturizm tashriflari soni 4%ga, undan keladigan iqtisodiy foyda 10-30%gacha ortadi. Yuqori ko`rsatkichlar Osiyo-Tinch okeani hududlari turistik regioniga to`g`ri keladi. Muttaxassislar fikricha, 40%dan 60%gacha xalqaro turistlar ekoturizm maskanlari markazlariga tashrif buyurishadi, ulardan 20-40% yovvoyi tabiatning turistik resurslariga o`z sayohatlarini mo`ljallashgan.

Bir vaqtning o`zida aynan shu temp asosida ov va baliq ovi turizmi hajmi ham o`sib bormoqda. Fikrimiz dalili sifatida, xalqaro safari klubi (SCI), jahon bo`yicha eng katta ov jamiyati, har yili o`rtacha 500 ta yangi a`zoga ega bo`ladi.

---

[13] http://www.world-tourism.org

**Jahon ekoturizm bozori o`sish dinamikasi.** Xalqaro ekoturizm tashkilotlarida faoliyat yurituvchi AQSH turoperatorlari tadqiqotlari ma`lumotlariga[14] asoslanib shuni aytish mumkinki, 1987-yil 78 turkompaniyalardan atigi 3 tasi yiliga 1000 dan ziyod mijozga xizmat ko`rsatgan. 1992-yilgi o`sish 80-yillar o`sishining 125%ni tashkil etgan. 1994-yilga kelib 35 kompaniya yiliga 1000dan ortiq xalqaro ekoturistlarga xizmat ko`rsatgan, bozorni 40%ini yiliga 49012 mijozga xizmat ko`rsatgan firmalar o`z qo`liga olgan.

Nepalda 1980-1991 yillar mobaynida trekking turlarga qatnashgan turistlar soni 255%ga ortdi. Masalan, 2000-yil bahorida Everest hududi atrofida 50 ta xalqaro ekspeditsiyalar o`tkazilgan. Har yili Qirollik ekoturizmdan 200 mln AQSH dollari foyda ko`radi. Kosta-Rika, ekoturistlar qabul qilish bo`yicha yetakchi bo`lgan mamlakat, har yili ekoturizm tashtiflari soni 781 ming ta ortadi. Mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlarning 66%i QQTHda sayohat qiladilar. Gondurasda har yili ekoturistlardan keladigan daromad yiliga 13-15% gacha o`sadi. Keniyada 1983-1993- yillar oralig`ida ekoturistlar soni 45%ga o`sdi.

Mamlakatga tashrif buyuruvchi 80% dan ortiq sayyoh tabiiy turistik resurslarga qiziqish bildirgan.

Ma`lumki, turmahsulot istemolchisining marketing profilini aniqlashda uning turni tanlashdagi psixologik, xulq- atvor va motivatsion aspektlari xususiyatlarini namoyon etish zarur. Bu tur firmalarga marketing strategiyasining 5 asosi (tovar,narx, joy, olg`a surish, omma bilan aloqa)ni belgilab olishga imkon yaratadi.

Xalqaro ekoturistik marketing profilini yaratish Xalqaro Ekoturizm Jamiyati (TIES) buyurtmasiga asosan Amerika konsalting firmasi “HLA&ARA” tomonidan olib borilgan. Natijada ekoturizmni (asosan Yevropa va AQSH) ifodalovchi quyidagi xususiyatlar aniqlandi:

- yosh 35-54 atrofida;
- iste`molchilarning jinsiy strukturasi 50% ayollar, 50% erkaklarni tashkil

---

[14] Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность,тенденции и стратегия развития.-Т. : Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. –41 стр.

etadi;

- m`alumoti- minimum kollejni bitirgan;

-sayohatni 60% insonlar juft bo`lib, 15%i oila bilan, 13% yolg`izlikda amalga oshirishni istashgan;

- tur davomiyligi o`rtacha 8-14 kun bo`lgan;

- eko sayohatga sarflanadigan pul 1-1,5 AQSH dollarini tashkil etadi, bu o`z navbatida boshqa sayyohlar sarflashga tayyor bo`lgan puldan ancha ortiq;

- turning attraktiv elementlari –yovvoyi tabiat, tirik tabiatni o`rganish, piyoda sayohat, trekking, madaniyat o`choqlarini o`rganish, mahalliy aholi tarixini o`rganish kabilar tajribali ekoturistlar uchun xos bo`lib, oddiy havaskorlar esa peyzajdan rohatlanish, tabiatning o`zi uchun yangi va noyob qirralarini kashf etish motivlari eko sayohatga otlanishga turtki bergan.

Keyingi tadqiqotlar mijoz tanlovini amalga oshiruvchi ekoturning eng muhim 3 elementlarini bilishga imkon yaratgan:

- bo`lajak sayohat hududining unikalligi;
- professional gid hamrohligiga ega bo`lish;
- aktiv dam olish imkonining mavjudligi (sayrlar, piyoda yoki otda yurish, sport turizmi mashg`ulotlari bilan shug`ullanish va h.k.).

Mahalliy aholi madaniyatiga qiziqadigan ekoturistlar uchun qadimiy vayronalar, muzeylar va mahalliy aholi vakillari bilan uchrashuvlar ehtimoli yuqori bo`ladi. 10% dan ziyod tajribali ekoturistlar malaka gid bilan sayohatga chiqishni eng yuqori o`rinlarga qo`yadilar. Bu ko`pchilik tur firma mijozlarining ular tashrif buyuradigan joy tabiati,madaniyati va tarixi haqidagi ma`lumotlar kamligidan qilgan shikoyatlari bilan bog`liq.

Ekoturistlarning rekreatsion ehtiyojlari jadallik bilan o`zgarishi alohida e`tiborga molik: Faqatgina 45% turist o`zining keyingi sayohatini oldingiday o`tishini xohlaydi. Qolganlari har doim biror yangilik yoki sarguzashtni izlab murojaat etishadi. Shuning uchun turoperatorlar katta tajribaga ega bo`lgan turistlar ehtiyojiga nozik yondoshib, ular uchun doimiy ravishda yangi programmalar yaratib eskilarini esa havaskor turistlar uchun qoldirishlari kerak.

Tajribali turistlar, yuqorida qayd etganimizdek, bir necha faol hordiq chiqarish elementlarini (trekking, otda yurish, rafting, kanyoning, va b.) o`zida qamrab olgan, ayniqsa, suvda kechadigan turlarga e`tiborlarini qaratishadi. Joylashuv maskanlari tanloviga kelganda,40% ekoturistlar qishloq uylarida, 27%i palatali lagerlarda, 21% qulay mehmonxonalarda, 33%i esa oddiy mehmonxonalarda tunashni afzal ko`rishadi. Kanada turizm tahkiloti ma`lumotlariga ko`ra, sarguzasht turizmi ixlosmandlarining 41%i kottej yo qishloq kulbalarida, 40%dan ortig`i esa palatkali lagerlarda yo maxsus qisqa muddatli yotoqlarda tunashni xohlashlarini qayd etishgan.

Xalqaro sayohatlar dinamikasini, xalqaro turistik tashkilotlar (WTO, WTTC) prognozlarini[15], xalqaro ekspertlar fikrlarini analiz etib, hozirgi kun xalqaro turizm va ekoturizmning quyidagi tendensiyalarni belgilash mumkin. BTT “Tourism Vision 2030” prognoziga ko`ra, 2030-yilga kelib xalqaro turistik tashriflar soni 1,8 mlrd birlikkacha o`sadi. 2000-yilda 702 mln xalqaro tashriflar kutilgan bo`lsa, 2013-yilda bu ko`rsatkich 1,087 mlrd, 2030-yilda esa 5/6% ko`proq tashrif kutilgan. Bu 1996-yildagidan 3 marta ko`p(592mln tashrif) degani. Shu o`rinda mamlakatlarda turizm sohasini rivojlantirish yanada oshayotganiga tayanib, bu ko`rsatkichlar yanada ortadi degan farazlar ham yo`q emas. Yaqin kelajakda turizmning eng ommabop turlari kruizlar, ekologikturlar, sarguzasht, bilish hamda tematik turizm bo`lishi nazarda tutilyapti.

Ko`plab mualliflar turmahsulotga bo`lgan talab nafaqa yoshidagi (senior) insonlar guruhi tomonidan o`sishi mo`ljallanmoqda. Bo`sh vaqtning ko`pligi, moddiy to`yinganlik, ijtimoiy hamda psixologik gedonizatsiya bularning hammasi kelajak avlodga optimistic ruhda qarashni bildiradi. Seniorlarning ko`pchiligi ayniqsa, AQSH, Germaniya, Yaponiya nafaqaxo`rlari ekoturlarda qatnashadilar. Bu tendensiya ekoturistlar yoshi 35-54 yoshlar oralig`ini ko`rsatiladi.

**1.4-chizma.** Ekoturizm jahon bozori zamonaviy faktorlari.*




[15] UNWTO Tourism highlights 2014 e




***Manba:** Tadqiqot natijasida olingan ma`lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Turizmning global bozoriga kirmoqchi bo`lgan mamlakat va regionlar uchun narx raqobatini yengib o`tish bir muncha qiyin bo`ladi. Bozorning uncha katta bo`lmagan hamdan yetarlicha mablag`ga ega bo`lmagan vakillari o`zlarining xarajatlarini zo`rg`a qoplashlari yoki biror bir foyda ko`rishlari biroz mushkul, ular o`z mahsulotlarini juda past narxlarda taklif etishlariga to`g`ri keladi. Bundan kelib chiqib, region tabiiy muhiti hamda madaniy o`ziga xosligi sababli bozorga taklif etilayotgan turistik mahsulotlarning yangi sifatlarining roli oshib boradi.

Talab diversifikatsiyasiga borib taqaluvchi bu tendensiya regionalizatsiya sifatida qayd etilishi mumkin. Regionalizatsiyaning ijtimoiy- iqtisodiy natijalari turizm globalizatsiyasi salbiy effektlariga qarama- qarshi tushuncha hisoblanadi. Uning ijobiy roli shundaki, ma`lumki, faqatgina madaniy emas, balki ekologik aspekt jihatidan ham ommaviy va sanoatlashgan jahon turizmi allaqachon ko`plab nohushliklarni olib kelgan va bu hol hozirgacha davom etyapti, ko`plab turistik regionlar tabiiy ekosistemalari buzilishiga katta ta`sir ko`rsatib kelmoqda.

Dunyoning turli makro regionlarida bir xil bo`lmagan temp asosida hamda intensivlikda rivojlanib borayotgan turistik globalizatsiya jarayoni bugungi kunda va kelajakda ham turlicha rol o`ynaydi. Ayniqsa, Yevropa davlatlari uchun bu kam ahamiyatli bo`lib, hozirda turmahsulotning juda ahamiyatli bo`lgan regional diversifikatsiyasi uchun xarakterlidir. Buni Yevropa qit`asiga yo`nalgan

hamda undan butun dunyo tomon harakatlanayotgan sayyohlik oqimidan ham bilish mumkin.

Shuni belgilab o`tish zarurki, 1996-yilgi BTTning 2000- yil prognozlari[16] real turistik oqim o`sishi va intensivlik darajasi ko`rsatkichdan farq qilgan ya`ni, Yevropada o`sha yili bu ko`rsatkich 403,3 mln kishida yetgan, bu esa prognozlangan natijadan 50mln kishiga ortiqdir. Bu shuni anglatadiki, turizm sohasidagi globalizatsiya kutilganidan ko`ra katta templar asosida rivojlanib bormoqda.

Qit`alararo turistik oqimlar ham kutilganidan ancha ko`p ya`ni, Yevropa va Shimoliy Amerika qit`alari aro oqimlar 30mln kishiga, Shimoliy Amerika va Janubiy-Sharqiy Osiyo orasida 10mln kishiga ortiqdir. Oqimlar oshish tempida Janubiy-Sharqiy Osiyo liderlik qilmoqda.

Bu ketishda, qit`alar aro turistik oqimlar o`rtacha 22%dan 27%gacha ortib, Afrikada-5,5%ga, Amerika uchun 3,9%ga, Janubiy-Sharqiy Osiyoga 6,5%ga, Yevropa uchun 3,0%ga, Janubiy Osiyo uchun 6,2%ga ortishi kuzatiladi.

BTTning 2020-yilga qilgan pragnozi bo`yicha, Osiyoga bo`lishlar soni Yevropaga tenglashib, Xitoy eng ko`p tashrif buyuriladigan mamlakat sifatida Fransiyani ortda qoldirib, eng katta sayyoh uzatuvchi mamlakatlar orasida to`rtinchi bo`lishi kutilmoqda. Jahon ekoturizm bozori haqida ma`lumotga ega bo`lish uchun avvalo, dunyo turizm statistika ma`lumotlarini ko`zdan kechirish foydadan xoli emas.

Xalqaro turistik tashriflar 2013-yilda 1.087 mlrd(US$1159mln)ga yetgan, bu esa 2012-yil ko`rsatkichidan 5%(US$1078mln) ortiqdir. 2013-2014-yillarda xalqaro sayohatga bo`lgan talab 2000-yillar resessiyadan keyingi pasayishdan tuzalishda davom etdi. 2008-yilning birinchi yarmidagi 5%li o`sishdan so`ng, xalqaro turizm oqimi salbiy tomonga o`zgara bordi va yiliga 2%li ko`rsatkich bilan yil yakunlandi.(Taqqoslash uchun bu ko`rsatkich 2007 yilda 7%ni tashkil etgan). Salbiy holat 2009-yil davomida chuqurlashib, ba`zi mamlakatlarda H1N1 grip virusi tufayli yanada ahvolni og`irlashtirdi va butun dunyo bo`yicha 2009-yil

---

[16] UNWTO Tourism highlights 2012 edition", 4-8p.

xalqaro sayohatlarga jo`nashni 4.2%ga (880mln), xalqaro turizm qabul qilishni 5.7%ga tushirib yubordi.

**1.2-Jadval. BTT quyidagi 10 ta mamlakatni xalqaro turistlar tashrifi bo`yicha lider davlatlar sifatida belgilagan***

| O`rin | Mamlakat | BTT Hududi | Xalqaro turistik tashriflar (2013) | Xalqaro turistik tashriflar (2012) | O`zgarish (2012 - 2011) (%) | O`zgarish (2013-2012) (%) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Fransiya | Yevropa | ---- million | 83.0 million | ▲1.8 | ▲-- |
| 2 | Qo`shma Shtatlar | Shimoliy Amerika | 69.8 million | 66.7 million | ▲6.3 | ▲4.7 |
| 3 | Ispaniya | Yevropa | 60.7 million | 57.5 million | ▲2.3 | ▲5.6 |
| 4 | Xitoy | Osiyo | 55.7 million | 57.7 million | ▲0.3 | ▼ 3.5 |
| 5 | Italiya | Yevropa | 47.7 million | 46.4 million | ▲0.5 | ▲2.9 |
| 6 | Turkiya | Yevropa | 37.8 million | 35.7 million | ▲3.0 | ▲5.9 |
| 7 | Germaniya | Yevropa | 31.5 million | 30.4 million | ▲7.3 | ▲3.7 |
| 8 | Birlashgan Qirollik | Yevropa | 31.2 million | 29.3 million | ▼0.1 | ▲6.4 |
| 9 | Rossiya | Yevropa | 28.4 million | 25.7 million | ▲13.4 | ▲10.2 |
| 10 | Malaziya | Osiyo | 26.5 million | 22.4 million | ▲1.3 | ▲18.8 |

***Manba**: "UNWTO Tourism highlights 2014 edition"ma`lumotlari asosida muallif islanmasi.

Xalqaro turizm tushumlari 2013-yilda 1.087 trln dollargacha oshdi (€994 mlrd), real ko`rsatkichlar 2010-yilga qaraganda 9.3%ga o`sgan.

**1.3-Jadval. BTT ma`lumotlariga asosan quyidagi mamlakatlar xalqaro turizmdan eng ko`p daromad olgan davlatlar***

| O`rin | Mamlakat | BTT Hududi | Xalqaro turizm | Xalqaro turizm | O`zgarish (2012- 2011 | O`zgarish (2013 - |
|---|---|---|---|---|---|---|

| | | | tushumlari (2013) | tushumlari (2012) | (%) | 2012) (%) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **1** | Qo`shma Shtatlar | Shimoliy Amerika | $139.6 milliard | $126.2 milliard | ▲9.2 | ▲10.6 |
| **2** | Ispaniya | Yevropa | $60.4 milliard | $56.3 milliard | ▼6.3 | ▲7.4 |
| **3** | Fransiya | Yevropa | $56.1 milliard | $53.6 milliard | ▼2.2 | ▲4.8 |
| **4** | Xitoy | Osiyo | $51.7 milliard | $50.0 milliard | ▲3.2 | ▲3.3 |
| **5** | Makao (Xitoy) | Osiyo | $51.6 milliard | $43.7 milliard | ▲13.7 | ▲18.1 |
| **6** | Italiya | Yevropa | $43.9 milliard | $41.2 milliard | ▼4.2 | ▲6.6 |
| **7** | Tayland | Osiyo | $42.1 milliard | $33.8 milliard | ▲24.4 | ▲24.4 |
| **8** | Germaniya | Yevropa | $41.2 milliard | $38.1 milliard | ▼1.9 | ▲8.1 |
| **9** | Birlashgan Qirollik | Yevropa | $40.6 milliard | $36.2 milliard | ▲3.3 | ▲12.1 |
| **10** | Gan Kong(Xitoy) | Osiyo | $38.9 milliard | $33.1 milliard | ▲16.2 | ▲17.7 |

**Manba**: "UNWTO Tourism highlights 2014 edition"ma`lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

BTTning 2030-yilgi prognozlarida dunyo bo`ylab eng ko`p daromad oladigan davlat sifatida xalqaro turizm bozoriga Xitoyning chiqish ehtimoli katta, chunki Xitoy turizm bozorida liderlik qilish uchun ichki turizmga juda katta e`tibor qaratmoqda, ya`ni xalqaro sayyohlarni jalb qilish bilan birgalikda, o`z mablag`ini chetga chiqarmaslik maqsadida o`z aholisi uchun keng imkoniyatli sayohat dasturlarini taklif etib kelmoqda.

**1.4- Jadval. BTT quyidagi davlatlarni 2013-yilning xalqaro turizm sarflari bo`yicha top o`ntalikka kiritgan***

| **O`rin** | **Mamlakat** | BTT Hududi | **Xalqaro turizm sarflari (2013)** | **Xalqaro turizm sarflari (2012)** | **Bozordagi ulushi (%)** | **O`zgarish (2013 - 2012) (%)** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **1** | Xitoy | Osiyo | $128.6 milliard | $102.0 milliard | 11.1 | ▲23.8 |
| **2** | Qo`shma Shtatlar | Shimoliy Amerika | $86.2 milliard | $83.5 milliard | 7.4 | ▲3.3 |

| O`rin | Mamlakat | BTT Hududi | Xalqaro turizm sarflari (2013) | Xalqaro turizm sarflari (2012) | Bozordagi ulushi (%) | O`zgarish (2013 - 2012) (%) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **3** | Germaniya | Yevropa | $85.9 milliard | $81.3 milliard | 7.7 | ▲2.3 |
| **4** | Rossiya | Yevropa | $53.5 milliard | $42.8 milliard | 4.6 | ▲28.9 |
| **5** | Birlashgan Qirollik | Yevropa | $52.6 milliard | $51.3 milliard | 4.5 | ▲3.5 |
| **6** | Fransiya | Yevropa | $42.4 milliard | $39.1 milliard | 3.7 | ▲4.9 |
| **7** | Kanada | Shimoliy Amerika | $35.2 milliard | $35.0 milliard | 3.0 | ▲3.2 |
| **8** | Avstraliya | Avstraliya | $28.4 milliard | $28.0 milliard | 2.4 | ▲8.8 |
| **9** | Italiya | Yevropa | $27.0 milliard | $26.4 milliard | 2.3 | ▼1.0 |
| **10** | Braziliya | Janubiy Amerika | $25.1 milliard | $22.0 milliard | 2.2 | ▲ 12.9 |

***Manba**:"UNWTO Tourism highlights 2014 edition"ma`lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Havo yo`llari ma`lumotlariga asoslanib MasterCard Global Destination Cities Index quyidagi shaharlarnini 2013-yilning eng mashhur turizm destinatsiyalari sifatida qayd etgan.

**1.5-Jadval. Eng mashhur turizm destinatsiyalari***

| O`rin | Poytaxt shaharlar | BTT Hududi | Xalqaro turizm tashriflari |
|---|---|---|---|
| 1 | Bangkok | Osiyo | 15.98 million |
| 2 | London | Yevropa | 15.96 million |
| 3 | Parij | Yevropa | 13.92 million |
| 4 | Singapur | Osiyo | 11.75 million |
| 5 | Nyu York City | Shimoliy Amerika | 11.52 million |
| 6 | Istanbul | Yevropa | 10.37 million |
| 7 | Dubai | Osiyo | 9.89 million |
| 8 | Kuala Lumpur | Osiyo | 9.20 million |

| O`rin | Poytaxt shaharlar | BTT Hududi | Xalqaro turizm tashriflari |
|---|---|---|---|
| 9 | Hong Kong | Osiyo | 8.72 million |
| 10 | Barcelona | Yevropa | 8.41 million |

***Manba**: "UNWTO Tourism highlights 2014 edition"ma`lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Destinatsion hududlar top 10taligida Osiyo qit`asining o`rni yuqoridir,sababi hozirgi kunda bu qit`a hududida yashovchi aholining sayohat ehtiyoji yevropaga nisbatan oshib ketdi. Osiyo qit`asidan sayohat qiluvchi sayyohlarning o`rtacha yoshi 25-60 bo`lib,ular bilim orttirish va sarguzasht turizmi uchun sayohatga chiqadilar.

**1.6-Jadval. MasterCard quyidagi shaharlarni 2013-yilda dunyoning turizmdan eng ko`p daromad olgan shaharlari sifatida qayd etadi***

| O`rin | Shahar | BTT Hududi | Xalqaro turistlar xarajatlari |
|---|---|---|---|
| **1** | New York City | Shimoliy Amerika | $18.6 milliard |
| **2** | London | Yevropa | $16.3 milliard |
| **3** | Parij | Yevropa | $14.6 milliard |
| **4** | Bangkok | Osiyo | $14.3 milliard |
| **5** | Singapur | Osiyo | $13.5 milliard |
| **6** | Tokyo | Osiyo | $12.7 milliard |
| **7** | Seul | Osiyo | $10.8 milliard |
| **8** | Dubai | Osiyo | $10.4 milliard |
| **9** | Sidney | Avstraliya | $10.4 milliard |
| **10** | Barcelona | Yevropa | $8.9 milliard |

**Manba**: "UNWTO Tourism highlights 2014 edition" ma`lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Global Turizm hajmi: butun dunyo iqtisodiyotining eng katta bizness sektori hisoblangan turizm va sayohat industriyasi dunyoning 11ta ish bilan band xodimning 1tasi turizm sohasida ishlaydi, hamda butun dunyo yalpi ichki mahsulotining 9%ini tashkil etadi.Xalqaro turizm eksporti 2014-yilda US$ 1.4 mlrd bo`lib, dunyo eksportining 6%ini tashkil etadi.

**Ekoturizm : Tabiiy muhitni asrab, mahalliy aholi farovonligini oshirish maqsadida tabiiy hududlarga mas`ul sayohat. (TIES,1990)**

Global ekoturizm hajmi: 1990-yillar boshlarida ekoturizm 20-34% yiliga o`sdi.2004-yilda tabiat turizmi turizm industriyasidan 3 marta tezroq o`sdi. Xalqaro bozorda Tabiat turizmi yiliga 10-12% o`syapti.

Ekoturizm, tabiat, meros, madaniy, sarguzasht, qishloq turizmini o`z ichiga olgan empirik turizm keyinining 20 yillikda eng tez o`sadigan soha bo`ladi.

United Nations Environmental Programme(UNEP) va Conservation International turizmning kengayishi asosan qolgan tabiiy hududlarda bo`lishini ko`rsatib o`tishdi.Barqaror turizm jahon sayohat bozorining 25% ini egallab, yillik 473.6mlrd dollar qiymatga ega bo`ldi.

Ekoturizm iqtisodiyoti va Ommaviy Turizm: “Dominika, Karib oldi davlatlariga tashrif buyurgan kichik, tabiiy xavfsiz qo`noqlarda boshpana topgan “stay over” sayyohlari o`z sayohatlari uchun kruiz passajirlaridan ko`ra 18 marta ko`proq pul sarflashadi.

Indoneziyaning Komodo milliy parkiga mustaqil sayyohlar har kelishlarida qariyb 100 dollar sarflaydi, package holiday makerlar esa shuning yarmicha. Taqqoslash uchun kruiz kema tashuvlar mahalliy iqtisodiyotga atigi 3 sent foyda keltirishadi.

All inclusive package turlarning 80%i havo yo`llari, mehmonxonalar va boshqa xalqaro kompaniyalarga tegadi. Eko-boshpana ijarasi va mahalliy savdo esa foydaning 95%ini mahalliy iqtisodiyotga borishini ta`minlaydi.

Madaniy sayohatga chiqqan turistning kunlik sarf hajmi ($90), oddiy tur a`zolari ($67), plyaj dam oluvchilari ($62)dan ancha ko`p.

**Ibob** bo`yicha xulosa qiladigan bo`lsak, turizm dunyo mintaqasining har bir hududida rivojlanib bormoqda. Sayyohlar oqimining oshishidagi asosiy sabab bu noodatiy sayohatlar va hali bosib o`tilmagan turistik hududlardir. Ekologik turizm ham xuddi shu kabi turistik resursi ko`p hududlarga kiradi. Ekoturistik sayohatlarga bo`lgan e’tiborni ko`paytirish kelajakda ulkan daromadlar manbaiga sabab bo`ladi deb hisoblayman.

## II-BOB. O`zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishning istiqbolli jabhalari.

### 2.1. O`zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari

O`zbekiston o`zining turistik resurslar salohiyati bo`yicha Markaziy Osiyoda oldingi o`rinlardan birini, dunyo bo`yicha esa yuqori o`rinlarni egallaydigan 10—15 mamlakatlar ichidan o`rin olgan. Respublika hududida turli davrlarda vujudga kelgan to`rt mingdan ortiq arxitektura, tarixiy va tabiiy yodgorliklar mavjud.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ona-tabiatni asrash, biologik turlarni saqlab qolish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. O`zbekistonda 2001-2005 - yillarda G`arbiy Tyan-Shanning biologik turlarini asrash bo`yicha xalqaro "Bank-GEF" loyihalari va xalqaro loyiha "Europe Aid" loyihasi amalda bo`ldi. Bu loyihalar atrof muhitni muhofaza qilish, mahalliy aholini turizmga jalb qilish bilan bevosita bog`langan.

Iqtisodiy jihatdan murakkab davrda aholi ko`proq yagona moddiy manba sifatida natural xo`jalikka suyanadi va shuning uchun ham chorvachilik va dehqonchilikni jadal rivojlantiradi. Tabiiyki, bunday sharoitda shudgor va yaylov uchun davlat muhofazasidagi bog`lar va qo`riqxonalardan ham foydalaniladi. Natijada insonning hali o`zlashtirilmagan hududlarga faol "hujumi" yuz beradi, oqibatda ekologiya buziladi va ba`zi turlar yo`qolib ketadi. O`zbekiston Respublikasining "O`rmonlar to`g`risida"gi Qonuni 3-modddasiga ko`ra, o`rmon

massivlari asosan ekologik (suvni asrash, himoya, sanitariya-gigiena, sog`lomlashtirish, rekreasion), estetik va foydalanish cheklab qo`yilgan boshqa vazifalarni o`taydi [17].

Mahalliy jamoaga muqobil faoliyat sifatida turizm bilan, ya`ni mahalliy flora va faunaga, landshaftga, xalq tarixi va madaniyatiga qiziqqan xorijiy va mahalliy sayyohatchilarni qabul qilish va ularga xizmat ko`rsatish taklif qilinadi.

Bu soha mavsumiy bo`lsa ham, aniq reja asosida, uddaburonlik bilan olib borilsa, mavsumni cho`zish, daromadni esa yil mobaynida bir xil olish mumkin. Aholi turar joy, ovqatlantirish, transport, odatlar va hunarlarini namoyish qilish, gidlik, himoya va xavfsizlik xizmatlarini ko`rsatadi.

Bu sohani rivojlantirish milliy an`analar va xalqimizga xos bo`lgan mentalitetga asoslangan mahalliy hunarmandchilikni rag`batlantiradi: aholi o`zining imkoniyati darajasida hunarmandchilik kasblarini, ovchilikni tiklaydi. Bu unga katta investisiya talab qilmaydigan qo`shimcha daromad manbai bo`ladi. Bundan tashqari, mahalliy aholi boshqa hududlardan keltirib emas, balki o`zi etishtirgan sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan turistlarni ta`minlaydi, ya`ni yordamchi xo`jalik (aholi uy-joy tomorqasidagi bo`sh erlarga ekilgan sabzavot mahsulotlari) ham daromad keltira boshlaydi.

Natijada aholining o`zi tabiatni faol qo`riqlay boshlaydi, chunki atrof muhit buzilsa, chet ellik turistlar kelmay qo`yadi, bu esa maxalliy aholining daromadlariga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Shu sababli manfaatdor tomonlar o`z mablag`larining bir qismini tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga hamda madaniyat va san`at yodgorliklarini ta`mirlashga ajratishga majbur bo`ladi.

Muhimi bu sohani rivojlantirish kommunikasiyalarni, yangi texnologiyalarni rag`batlantiradi, yo`llar qurilishi, aloqa liniyalari o`tkazilishi, tibbiyot, ichimlik suvi, energiya va hokazolar bilan bog`liq faoliyat turlari paydo bo`ladi.

Masalan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 - yil 10 - martdagi 83-raqamli "Tabiiy boyliklarni saqlash hamda Chimyon-Chorvoq

---

[17]"O'rmonlar to'g'risidagi"dagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, -T.: 1999 y. 15 aprel.

hududini o`zlashtirishga kompleks va izchil yondoshishni ta`minlash to`g`risida” [18]gi qarorida aytilishicha, bu hudud o`z tabiiy-iqlimiy sharoitlari bo`yicha kurort va rekreasion xarakterdagi alohida qo`riqlanadigan tabiiy hududga kiradi. Shu munosabat bilan tabiatga sezilarli zarar keltiradigan korxonalar tomonidan bo`ladigan ekologik tahdidni kamaytirish hamda mahalliy turizmning salohiyatini aniqlash maqsadida bu hududda infratuzilmani restrukturizasiyalash ishlari o`tkazildi. Tabiatga salbiy ta`sir ko`rsatadigan har qanday sanoat, qishloq xo`jaligi va boshqa korxonalar qurish ta`qiqlandi.

G`arbiy Tyan-Shan-bu uch davlat O`zbekiston, Qozog`iston va Qirg`izistonning hududi. Shuning uchun bu davlatlar o`rtasida faol hamkorlik va muvofiqlikka erishmay turib bu erda turizmni rivojlantirib bo`lmaydi. Bunda masala faqat xorijiy sayyohatchilar yoqtiradigan transchegaraviy turistik marshrutlarni yaratish ustida emas, balki tabiiy boylikni asrash, hayvonlarni noqonuniy yo`l bilan ovlash orqali ularni vahshiyona qirib yuborishga yo`l qo`ymaslik, industriyaning salbiy ta`sirini kamaytirish, mahalliy iqtisodiyotni ko`tarish ustida hamdir. Hududni rivojlantirishdan hokimiyat ham, mahalliy jamoa ham manafaatdor bo`lishi lozim. Ular o`z hududlarida yuz beradigan barcha xo`jalik jarayonlarini nazorat qilishi va boshqarish ishlari jilovini o`z qo`llariga olishlari kerak. G`arbiy Туань-Shanning tabiiy boyliklarini asrash yuzasidan TASIS loyihasi aynan shu muammoni hal qilishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda ekoturistik mahsulotga xorijiy va mahalliy turistlar orasida ehtiyoj katta. Mutaxassislarning fikriga ko`ra, Markaziy Osiyo tabiat qo`yniga qilinadigan sayyohatchilar uchun o`ziga xos “Makka” bo`lib qolishi mumkin.

Turistik mintaqaning jozibadorligini ko`rsatuvchi asosiy omillar bu O`zbekistonning ekzotik tabiati, boy landshafti, hayvonot va o`simlik dunyosining rang – barangligidir. Bugungi kunda muhofaza ostiga olingan tabiiy hududlar ekologik turizmning asosiy bo`g`ini hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasining ma`lumotlariga ko`ra 9 ta davlat

---

[18]O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 - yil 10 - martdagi 83-raqamli “Tabiiy boyliklarni saqlash hamda Chimyon-Chorvoq hududini o‘zlashtirishga kompleks va izchil yondoshishni ta’minlash to‘g‘risida”gi qarori,2000-yil.

qo`riqxonalari mavjud bo`lib, ular 209,6 mingga yerni qamrab olgan qo`riqxonalardan biri (Chotqol tog` - o`rmon) biosfera davlat maqomini olgan. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi tasarrufida - Chotqol tog`-o`rmon biosfera qo`riqxonasi (Toshkent viloyatida), Hisor tog`-archa qo`riqxonasi (Qashqadaryo viloyatida), Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi huzuridagi O`rmon xo`jaligi bosh boshqarmasi tasarrufida Zomin tog`-archa (Jizzax viloyatida), Baday-to`qay tekislik-to`qay (Qoraqalpog`iston Respublikasida), Qizilqum qumli-to`qay (Buxoro va Xorazm viloyatlarida), Zarafshon tekislik-to`qay (Samarqand viloyatida), Nurota tog`-yong`oq (Jizzax viloyatida), Surxon tog`-o`rmon (Surxondaryo viloyatida) qo`riqxonalari hamda Geologiya va mineral resurslar davlat qo`mitasi tasarrufida - Kitob geologik qo`riqxonasi faoliyat yuritmoqda.

Hayvonot dunyosi o`simlik dunyosidan farqli ravishda ekologik tizimlarda aynan ularning turi va sonining ko`pligi, ya`ni biologik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O`zbekiston faunasining turlari ko`p bo`lib, sutemizuvchilarning 97 turi, sudralib yuruvchilarning 57 turi, qushlarning 410 turi mavjud. 2011-yilda chop etilgan O`zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga sut emizuvchilarning 23 turi, qushlarning 48 turi (kenja turlar bilan 51 ta), sudralib yuruvchilarning 16 turi, baliqlarning 17 turi, halqasimon chuvalchanglarning 3turi, molluskalarning 14 turi, bo`g`imoyoqlilarning 61 turi (kenja turlar bilan 62 ta) kiritildi.

O`zbekistonning iqlim sharoiti dam olish va ekoturizmni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizning Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Buxoro, Farg`ona va Toshkent viloyatlari tabiat yodgorliklariga boy bo`lgan hududlar bo`lib, ommaviy ekoturizm markazlari bo`la oladi. Bu viloyatlarda ajoyib g`orlar, sharshara va shovvalar, buloq, jilg`a va soylar, daralar, qoyali relyef shakllari, ochilib qolgan yotqiziqlar va boshqa ko`plab ajoyib tabiat yodgorliklari uchraydi.

Hozirgi kunda faqatgina Samarqand viloyatidagi Zarafshon qo`riqxonasi va Buxoro viloyatidagi «Jayron» ekomarkazi doimiy ravishda sayyohlarni qabul qilmoqda. Boy imkoniyatlarga ega bo`lgan Chotqol, Zomin, Nurota, Hisor qo`riqxonalari, Amudaryo qayirlaridagi to`qaylar amaliy jihatdan

foydalanilmayapti. Shuningdek ajoyib tog` va cho`l landshaftlari, botanik, geologik va gidrogeologik obyektlar sayyohlarni o`ziga jalb etib, ekoturizmning rekreatsion elementini tashkil etib, sport turizmi, alpinizm, tog` chang`isi, ot sporti va boshqa faol dam olish turlarini qamrab oladi.

Ma`lumotlarga ko`ra O`zbekiston Respublikasida davlat ro`yxatiga olingan turistik korxonalarining atigi 5 foizi ekoturizmga yo`naltirilgan. Katta-katta turoperatorlik aksariyat hollarda aralash turdagi sayyohlikni taklif qiladilar. Hattoki «Ekosan-tur» kompaniyasi ham bundan mustasno emas. Buning o`ziga yarasha sabablari bor, albatta. Sof ekologik turizmga haligacha respublikamizda turizmning mustaqil sohasi sifatida qaralmagan va shuning uchun uning o`zi mustaqil holatda yetarli darajada daromad olib kelishga qodir emas. Respublikaning zamonaviy xo`jalik yuritish infrastrukturasida ixtiyoriy ko`rinishdagi mahalliy aholiga yoki chet el turistlariga xizmat ko`rsatish talab darajasida emas (2.1-jadval).

Bu esa, tashqi turistik bozorda o`zbek ekoturizm mahsulotlariga bo`lgan talabning past darajada bo`lishiga asosiy sababdir.

***2.1.jadval*** **O`zbekistonda 2014-yilda turistik resurslarga va foydalanish potensialiga bo`lgan talab***

| Turistik resurslar | Mahalliy turistlarga talab | Chet el turistlariga talab | Imkoniyat |
|---|---|---|---|
| **Tegilmagan tabiat** | O`rtacha | Yuqori | Yuqori |
| **Mahalliy madaniyat ko`rinishlari** | O`rtacha | Yuqori | Yuqori |
| **Mahalliy aholi bilan muloqot** | O`rtacha | O`rtacha | Yuqori |
| **Taklif qilinayotgan tadbirlar( sayr, folk-shou,marosimlar)** | Yuqori | Yuqori | Yuqori |
| **Ekzotik muhit va sarguzasht malakasi** | Yuqori | Yuqori | Yuqori |
| **Xizmat ko`rsatish sifati** | O`rtacha | Yuqori | Yuqori |

***Manba:** Tadqiqot natijasida olingan ma`lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Chet elliklarning mahalliy aholiga qaraganda bizning milliy an`analarimiz, tarixiy obidalarimizga qiziqishlari bir qadar yuqori. Lekin O`zbekistonning ekoturistik salohiyatini past deb bo`lmaydi. Faqatgina uning ochilmagan

imkoniyatlarini rivojlantirish talab etiladi. Bunda demokratik prinsiplar va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asos-langan erkin raqobat muhitini yaratish, ekologik-huquqiy mexanizmni ishlab chiqish o`ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekoturistlarning ko`p qismini tashkil qiluvchi ekoturistlar - shaharliklarning mahalliy aholi bilan bog`lanishadi va ularning ekoturistik xizmatlaridan foydalanish darajasi kundan-kunga oshib bormoqda. Chet ellik mehmonlar esa qishloq aholisi, ularning yashash tarzi, an`analari, madaniyatiga qiziqishadi.
Hozirgi kunda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi va uning tegishli bo`linmalari ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida ushbu «Jayron ekomarkazi»ga (6-rasm) qo`shni bo`lgan 27300 ga maydonda Markaziy Osiyoda kam uchraydigan noyob 6 juft tuyoqli hayvonlarni (jayron, buxoro qo`yi, buxoro bug`usi, yovvoyi echki, burama shoxli echki — marxo`r, yovvoyi cho`chqa (to`ng`iz) kabilarni) saqlash, ko`paytirish va himoya qilish maqsadida milliy bog` tashkil etish borasida ilmiy-iqtisodiy asoslangan loyiha tuzish ishlarini boshlab yubordi.



***2.1.rasm.*** «Jayron ekomarkazi»ga sayohat.

Toshkent shahridan 100 km janubi-sharqda joylashgan «Sayhun» xo`jaligida (367 gektar) Qo`mita Markaziy Osiyoda yo`q bo`lib ketish arafasida turgan juft tuyoqli hayvonlarni saqlash, ko`paytirish va ularni tabiatga qaytarish maqsadida parvarishxona qurib bitkazdi. Ushbu maskan mahalliy va chet ellik ekoturistlarning turizmning tabiatga sayohat va ekosafari turlarini o`tkazish uchun juda qulay joydir. Chunki bu yerda nafaqat yuqorida nomlari tilga olingan hayvonlar, balki Markaziy Osiyoda qirilib ketish arafasida turgan noyob Buxoro

bug`usi, Buxoro qo`yi, Seversov qo`yi, Buxoro jayronlari, Burama shohli marxo`r echkisi kabi boshqa turlardagi kamyob juft tuyoqli hayvonlarni saqlash va ko`paytirish uchun yetarli ozuqaviy resurslar va himoya vositalari mavjuddir.

Butunjahon turistik tashkilotining (BTT) bashoratiga ko`ra, 2020-yilga borib Xitoy dunyoda turistik yo`nalishda oldingi o`ringa chiqib oladi. Bugungi kunda ushbu mamlakat 55.7 mln sayyohlarning tashrifi bilan to`rtinchi o`rinni egallagan va dunyodagi kuchli beshlik - Fransiya, AQSH, Ispaniya, Italiya va Buyuk Britaniyadan o`tib ketish arafasida. Agar har yili turistlar soni 8%ga o`sib borsa Xitoyda sayyohlarning tashrifi 20 yildan so`ng 260 mlnga yetishi ko`zda tutilmoqda. Gonkong (Syangan) shahrining o`zidayoq ularning soni 112 mlnga yetishi mumkin. Ekoturizm ham bundan mustasno emas. Unda turizm bilan birga ekoturizm hozirgi sur`atlarda rivojlansa, faqatgina Xitoyning o`zida 68—75 mln tashqi turistlar oqimi kuzatilishi mumkin.

Dunyo bo`yicha eng yirik «Buyuk ipak yo`li» loyihasi qatnashchilari oldida tashrif buyuruvchilar yuqori bo`lgan davlatlarga kirgan turmahsulotlarni ishlab chiqish masalasi turibdi. Bunda turistik marshrutlar quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi: Germaniya — O`zbekiston - Xitoy, Fransiya – Qozog`iston – Xitoy va hokazo. Agar avia tashishlardan tashqari sayyohlarning kundalik harajatlari 5 mlrd AQSH dollarga chiqishi hisobga olinsa, ushbu foydaning bir qismi O`zbekiston Respublikasiga tegishli bo`lishi mumkin. Xalqaro ekspertlarning baholashlariga ko`ra, 2020-yilga kelib sayyohlarning asosiy qismi an`anaviy mamlakatlarga tashrif buyurishadi. Biroq, ularning bir guruhi o`zlariga yangi bo`lgan marshrutlarni o`zlashtirishga harakat qiladilar. Hisob-kitoblarga ko`ra, uzoq masofaga borish umumiy sondan 24% ni tashkil qiladi (hozirda bu ko`rsatkich 18% tashkil qilmoqda). BTT eksperti Z.Kleverdonning fikricha, «odamlar borgan sari uzoq-uzoqlarga sayohat qilishib, o`zlarining ta`tillarini bir necha bosqichga bo`lishadi, bunda uning davomiyligini o`zgartirishmaydi».

O`zbekistonda 38 mln gektardan ortiq maydonda ovchilik — baliqchilik yer maydonlari, jumladan, 1.0 mln gektar suv fondi yerlari mavjud. Respublikamiz faunasi 97 turdagi o`txo`r hayvonlar, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib

yuruvchilar va 83 baliq turlariga ega. O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti ma`lumotlariga qaraganda, O`zbekistonda hozirgi kunda 4100 dan ortiq o`simlik turlari mavjud bo`lib, ulardan 9% endemiklar, ya`ni faqat bizning yurtimizga xosdir. Bulardan tashqari, O`zbekiston Osiyoning qoq markazida, joylashgani bois ekoturizm rivojlanishi uchun qulay geoturistik sharoitga ega. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasining ma`lumotlariga ko`ra vatanimizda nodir umuminsoniy arxeologik topilmalar, paleontologik qoldiqlar, dunyoda juda kam uchraydigan geologik kesmalar, 8000 dan ortiq tabiiy yodgorliklar mavjud. 2015-yilda O`zbekiston Respublikasining muhofaza etadigan tabiiy hududlari ro`yxati qayta ko`rib chiqildi va u yerdagi barcha hududlar davlat himoyasidadir(2.2-jadval)

**2.2-jadval.O`zbekiston respublikasining muhofaza etadigan tabiiy hududlari ro`yxati***

| N2 | Toifa | Muhofaza maskani | Maydoni, ga | Tashkil etilgan yil |
|---|---|---|---|---|
| I | II | III | IV | V |
| | | Davlat qo'riqxonalari | 175536 | |
| 1 | Baday-to'qay | Amudaryo pasttekisliklari to'qay ekotizimlari | 6462 | 1971 |
| 2 | Hisor | Hisor tizmasi tog ekotizimlari | 80986 | 1983 |
| 3 | Zomin | Turkiston tizmasi tog ekotizimlari | 21735 | 1959 |
| 4 | Zarafshon | Zarafshon daryosi o'rta oqimi to'qay ekotizimlari | 2352 | 1875 |
| 5 | Qizilqum | Amudaryo o'rta oqimi va qo'shni saxrolar to'qay ekotizimlari | 10311 | 1971 |
| 6 | Nurota | Nurota tizmasi tog' ekotizimlari | 21137 | 1975 |
| 7 | Surxon | Qo'hitong tizmasi to' ekotizimlari va Amudaryo o'rta oqimi to'qay ekotizimlari | 26895 | 1987 |
| 8 | Kitob | Noyob geologik kon | 3938 | 1979 |
| 1 | Ugom-Chotqol davlat tabiat milliy bog'i | G'arbiy Tyonshon ekotizimi | 574590 | 1990 |
| 2 | Xalq bog'i(Zomin) | Turkiston tizmasi ekotizimi | 24110 | 1977 |
| | | Davlat tabiat yodgorliklari | 3058 | |
| 1 | Yozyovon sahrosi | Noyob tabiiy qum massivi | 1962 | 1994 |
| 2 | Mingbuloq tumani tabiat yodgorligi | O'simlik va hayvonot dunyosi | 1000 | 1991 |
| 3 | Chust tumani tabiat yodgorligi | O'simlik va hayvonot dunyosi | 96 | 1990 |
| | | Alohida tabiiy ob'ektlar va komplekslarni saqlash,ko'paytirish va tiklash uchun hududlar | | |
| | | Buyurtmaxonalar | 1503206 | |
| 1 | Oqtog' | Noyob va yo'qolib borayotgan hayvon va o'simliklar | 15400 | 1997 |
| 2 | Dengizko'l | Hayvonot va o'simliklar olami | 50000 | 1990 |
| 3 | Karnabcho'l | Hayvonot va o'simliklar olami | 40000 | 92 |
| 4 | Qoraqir | Hayvonot va o'simliklar olami | 30000 | 1992 |
| 5 | Qo'shrabot | Hayvonot va o'simliklar olami | 16300 | 1992 |
| 6 | Muborak | Noyob va yo'qolib borayotgan sut emizuvchilar va qushlar | 264469 | 1997 |
| 7 | Sarmish | Hayvonot va o'simliklar olami | 5000 | 1997 |
| 8 | Sayg'ochi | Yovvoyi hayvonlar | 1000000 | 1997 |
| 9 | Sechanko'l | Baliqlar | 7037 | 1998 |
| 10 | Sudochbe | Yovvoyi hayvonlar | 50000 | 1991 |
| 11 | Xubara | Tuvaloq va uning yashash joylari | 25000 | 1998 |
| | | Tabiiy parvarishxonalar | 7122 | |
| 1 | "Jayron" ekomarkazi | Jayron, qulon, Prejevalsk otlari | 7122 | 1976 |
| | Baliq xo'jaligi hududlari | | - | - |
| | Muhofaza etiladigan landshaftlar | | 1004005 | |
| | Kurort tabiat hududlari | | 338 | |
| | Rekreasiya hududlari | | 70 | |
| | Davlat biosfera rezervatlari | | 35724 | |
| 1 | Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi | Chotqol tizimi ekotizimlari | 35724 | 1947 |

***Manba:** (*"O`zbekiston Respublikasining atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanish holati" to`g`risida Milliy Ma`ruza, T* - 2015

O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi Davlat bionazorati «Tabiiy hududlarni muhofaza qilish bo`limi «Jayron ekomarkazi»ning 30 yillik faoliyatiga, jayronlar, prjevalskiy zotli otlar, qulonlarni saqlash va ko`paytirish, ularning etalogiyasi, biologiyasi, fiziologiyasini o`rganish hamda ekoturizmni rivojlantirish maqsadida «Jayron ekomarkazi» ga qo`shni, ochiq cho`l hududida joylashgan 11377 gektar yerni

tashkil etgan markaz tajriba uchastkasini milliy tabiiy bog`ga aylantirishga bag`ishlangan buklet-broshura 3 til (o`zbek, rus, ingliz) da chop etdi.

Bunga misol tariqasida, Jahon turizm tashkiloti ma`lumotlariga ko`ra, O`zbekistonga 2014-yilda 1,9 mln turist kelib ketgan, amalda esa O`zbekiston turistik resurslari har yili 2 mln dan ortiq turistlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. «O`zbekturizm» Milliy Kompaniyasi ma`lumotlariga ko`ra, 2014-yilda turistik xizmatlarning hissasi 3.628.6 mlrd so`mga yetgan va bu O`zbekiston Yalpi Milliy mahsulotining bor yo`g`i 3.0% tashkil etdi. O`zbekistonda ekologik turizmning rivojlanishiga to`sqinlik qiluvchi asosiy omillaridan biri - muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ekoturistlar uchun qulay ekoturlarning yaratilmaganligidadir.

2006-yil 17-aprelda Prezident Islom Karimovning «O`zbekiston Respublikasida 2006—2010-yillarda xizmat ko`rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» gi 325-sonli qarori qabul qilindi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti olimlari bilan birgalikda «O`zbekistonda ekotruizmni rivojlantirish konsepsiyasi»ni ishlab chiqdi.

Ekoturizm O`zbekistonning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish sohasida katta ahamiyatga ega. Bu tarmoqni rivojlantirishdagi asosiy yo`nalishlar xorijiy sayyohlarni Ona vatanimizning land-shafti, hayvonot va o`simlik dunyosiga boy va betakror tabiati bilan tanishtirish, xalqlar o`rtasidagi do`stlik aloqalarini bog`lash, mamlakatlar va turli xalqlarning bir-birlarini kengroq bilishlari, qirilib ketish arafasida turgan noyob hayvonot va o`simlik dunyosini saqlash va ko`paytirish maqsadida qo`riqxonalar (Surxon, Nurota, Hisor, Baday-To`qay, Zarafshon, Qizilqum, Chotqol, Zomin, Kitob), parvarishxonalar («Jayron ekomarkazi», Sayxun xo`jaligi) tarkibida va atrofida dunyo talablariga javob bera oladigan milliy tabiiy bog`larni yaratish loyihalarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish orqali muhofaza qilinadigan hududlarda ekoturizm obyektlarining moddiy-texnik bazasini yaratish uchun qo`shimcha chet el investitsiyalarini keltirishdan iborat. Shu vazifadan kelib chiqqan holda O`zbekiston

Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi tarkibida «Ekoturizm» ilmiy-iqtisodiy Markazini tuzish maqsadga muvofiq.

Ekologik turizm oqilona rivojlantirilsa, u ekologik inqiroz va talafotlarning yechimini topishda juda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Buning uchun bugungi kunda mamlakatimizda tabiiy resurs yetarli. Ulardan o`ta samaradorlik bilan foydalanish ekoturizmning ham boshqa sohalar kabi gullab-yashnashida muhim o`rin egallaydi.

O`zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Quvayt Davlati Hukumati o`rtasidagi 2009 - yil 16 - sentyabrdan "**Barqaror rivojlanish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy ryesurslarni saqlash sohasida hamkorlik"** to`g`risida hamkorlik memorandumida ko`rib chiqilgan ishlarning amalga oshrildi:

1. Atrof-muhit ifloslanishini oldini olish va bartaraf etish hamda chiqindilarni boshqarish;

2. Loyihalarni ishlab chiqishda atrof-muhitga ta`sirni baholash;

3. Atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida ma`lumot va tajriba almashish;

4. Tabiat qo`riqxonalarini boshqarish;

5. Ekologik indikatorlar va barqaror rivojlanish indikatorlari;

6. Aholi punktlarida atrof-muhit holatini yaxshilash;

7. Qurg`oqchilik hamda yerlar tanazzuliga qarshi kurash;

8. Ekologik turizm;

9. Suv resurslarini muhofaza qilish;

10. Atrof-muhit muhofazasi hamda tabiiy resurslarni saqlab qolish sohasidagi sanoat va texnologiyalarni rivojlantirish.

Yurtimizda ekoturizmni yanada rivojlantirsh maqsadida O`zbekturizm milliy kompaniyasi tomonidan 2014- yil 6-fevraldan to 5 noyabrga qadar "O`zbekistonning sayyohlik salohiyatini namoyon etgan eng yaxshi videorolik", "O`zbekistonning ekoturizm salohiyatini namoyon etgan eng yaxshi videorolik", "Milliy qadriyat va an`analarni targ`ib etishga qaratilgan eng yaxshi videorolik",

“Videorolik ssenariysi uchun eng yaxshi g`oya” va “O`zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlari to`g`risidagi eng yaxshi videorolik” nominatsiyalar tanlovini e`lon qildi. Ushbu tanlov natijalari 2014-yil 8-10-noyabr kunlari Xivada 150dan ortiq 14-30 yoshdagi ishtirokchilar qatnashishdi.

Hozirda BTTning 2020-yilgacha bo`lgan istiqbol rejalarida yangi mustaqil davlatlarning turistik imkoniyatldaridan keng va atroflicha foydalanish birlamchi masalalar qatoridan joy olgan. Zero O`zbekiston kabi o`lkalarda nafaqat tarixiy, balki uning betakror tabiati bilan bog`liq bo`lgan sayyohlik imkoniyatlari juda katta.

## 2.2. O`zbekistonda milliy va mahalliy ekoturizm resurslari

O`zbekiston Respublikasida umumiy turizm industriyasining jadal sur`atlarda rivojlanishi ekoutrizmga ham o`z ijobiy natijalarini o`tkazdi, keyingi paytlarda bevosita ekoturistik marshrutlar bilan shug`ullanadigan markazlar va tashkilotlarning soni 12 tagacha yetdi. Bilvosita turizmning boshqa turlari bilan bir qatorda ekoturizm bilan shug`ullanadigan turistik tashkilotlarning soni 30 dan oshib ketdi, Bularning hammasi Airidik shaxs maqomida faoliyat yuritayotgan ekoturistik tashkilotlardir.

Ekologik turizmning xalqaro markazi Ekosan-tur tashkiloti asosiy ekoturlarni taqdim etadi. Ular asosan Nurota davlat Qo`riqxonasi, Zomin milliy bog`i, G`arbiy Tyan-Shan tog`lariga piyoda va otlarda ekoturistik marshrutlar. Ekosan-tur Qizilqumga tuyalarda sayohat, shuningdek tog` va tekislik daryolarida qayiqlarda suzish, O`zbekiston *bo`ylab* ovchilik va baliq ovlashni uyushtiradi.

Ekosan-turning asosiy marshrutlari G`arbiy Tyan-Shan tog` tizmalariga tegishli bo`lib, ularga:

- Chimyon — Taxta jaylau dovoni trekkingi;
- Chimyon - Kichik Chimyon cho`qqisi trekkingi;
- Chimyon - Oqsoy darasi - Qora Sharshara trekkingi;
- Chimyon-Qumli dovon-Gulqamish darasi trekkingi;
- Beldirsoy-Nurekota-Oqsog`ota-Kumushkon otdagi tur.

Undan tashqari Ekosan-tur turistlarga Nurota davlat qo`riqxonasiga 6 kunlik trekking va otlarda, Zomin milliy bog`iga 3 kunlik trekking va otlarda, Qizilqumga 2 kunlik tuyada sayohat turlarini taqdim etadi. Navoiy shahridagi ekskursiya va sayohat byurosi 2002-yilda tashkil etilgan bo`lib, u kompleks turlarni taqdim etadi. Navoiy ekskursiya va sayohatlar byurosiga qarashli Navoiy turistik bazasi Aydarko`lda joylashgan. Uning tarkibiga, asosan, to`rtta o`tov, ikkita chodir va ikkita tepa tomoni yopilgan bostirmalar kiradi. Firmalarga qarashli 10 ta tuya bir sutkada 100 ta sayohatchiga xizmat ko`rsata oladi.

1999-yilda tashkil etilgan Ark-Osiyo xususiy firmasi an`anaviy ekoturistik sayohatlardan tashqari kompleks (trekking, tog` chang`i, ot va tuya, velosipedlarda sayyohat) turlarni ham taqdim etadi.

O`zbekistonning Sayohatchilar Assotsiatsiyasiga tegishli bo`lgan Rabat Malik ekoturistik tashkiloti tomonidan ham ekoturlar ishlab chiqilgan. Rabat Malik 2000-yil 15-martda, ya`ni sayohatchilar kunida tashkil topgan. Assotsiatsiyaga 22 tashkilot a`zo. Ularning barchasida ekoturlar uyushtiriladi. Bular asosan G`arbiy Tyan-Shan tog`lariga uyushtiriladigan — «Kumush ko`za», «Xum-son», «Kumushkon» kabi ekoturistik marshrutlardir.

Turistik diqqatga sazovor joylar xalq ijodi, xalqlar tarixi va madaniyati obyektlariga bog`liq holda o`zgaradi. BTT tavsiyasiga ko`ra barcha turistik ko`rgazma obyektlari quyidagi guruhlarga bo`linadi:

**1.** Asrlar davomida turli hududlarda quriladigan va xalqning boyligi sifatida davlat tomonidan muhofaza qilinadigan tarixiy va arxeologik obyektlar. O`zbekistonda ularning soni 7 mingdan oshiq va tarixiy obyektlarning o`zi 2,5 mingtani tashkil etadi.

**2.** Xalqning tarixi va madaniyati bo`yicha ko`rgazma va muzeylar yoki xalq xo`jaligi tarmoqlari yutuqlari ko`rgazmalari. Ular O`zbekistonda turli xil tarixiy va madaniy yo`nalishlari bo`yicha 100 dan ortiq.

**3.** O`z ichiga tur bazalar, pansionatlar, dam olish maskanlari va boshqalar shu guruhga kiruvchi profilaktoriylar, kurortlar, davolash obyektlarini oluvchi ko`rgazma obyektlari. Ular O`zbekiston hududida 300 dan ortiq.

**4.** Turistlarga ko`rsatiladigan sanoat obyektlari. Bular yirik sanoat, zavod va fabrikalari.

**5.** Xalq ijodi obyektlari – bular metall, oltin, chinni buyumlar ishlab chiqaruvchi xususiy tashkilotlar. Faqatgina Farg`ona vodiysida xalq ijodiy buyumlarini ishlab chiqaruvchilar soni 2,5 mingdan ortiqni tashkil qiladi.

**6.**Tabiat – o`rmon, tog` landshaftlari, milliy parklar, tog` yon bag`irlari, daryo o`zanlari va boshqa diqqatga sazovor joylar. Ba`zi bir davlatlarda dengiz turistlardan keluvchi valyuta tushumining asosiy vositasidir.

**7.**Temir yo`llar shaharlar bo`ylab, turistlarning ekskursiyasi, dam olishi va ovqatlanishining optimal uyg`unlashuvidir.

O`zbekistonning butun hududlari dengiz sathidan belgilanganda bir biridan tabiiy ekologik jihatdan farqlanuvchi 5ta vertikal mintaqalarga bo`linadi. Bu mintaqalarning iqlimi, o`simliklar dunyosi va hayvonot olami ham turli tuman. Shuningdek, chet ellik turistlarni qiziqtiruvchi 4 ta fasl ham ekoturizmning muhim resurslari hisoblanadi. Bu ekologik turizm resurslariga 11ta yirik daryolarimiz va 53 ta suv omborlari havzalarini ham qo`shish mumkin.

**1.Cho`llar mintaqasi.** Dengiz sathidan 400-500metr balandlikdagi joylarni o`z ichiga oladi va O`zbekistonning 70%ini tashkil qiladi, o`simliklari 498tur. Shulardan, 64 turi shifobaxsh o`simliklar, 273 turi chorva mollari uchun ozuqaviy xususiyatlarga ega bo`lgan o`simlik turlari hisoblanadi. Bu mintaqaning o`simliklari qurg`oqchil iqlimga moslashgan va asosan sho`rxok va qumli tuproqlarda yaxshi rivojlanadi.



**2.3Rasm.**O`zbeiston cho`llari ko`rinishi.

O`zbekistonning cho`llari quyidagilar: Qizilqum, Ustyurt cho`li, O`rta cho`l, Qarnobcho`l, Konimex cho`l, Muborok cho`l, Qarshi cho`li, MIrza cho`l, Markaziy Farg`ona cho`llari, Kattaqum va Sandiqli cho`llari. Bulardan tashqari 1.9 mln gektarli o`simliksiz ko`chma barxanli qum hududlari bor.



**2. To`qay mintaqasi.** Respublikamizning Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron kabi daryolari sohillarida to`qaylar alohida mintaqalar holida uchraydi.

**2.4-Rasm.***Cho`l mintaqasi hayvonlari.*

To`qaylar o`zga xos tabiat landshaftlari bo`lib, siyrak zax o`rmon va chakalakzorlardan iborat. To`qaylar turli hayvonlar yashashi uchun muayyan sharoitga ega. Ular ekologik turizmning eng qiziqarli resurslaridir.





**2.5-Rasm.***To`qayzorlarning hayvonlari.*

**3. Adir mintaqasi.** Okean sathidan 1000-1200 metrdan 2700-2800metrgacha bo`lgan balandliklarini o`z ichiga oladi. Balandlikka ko`tarilgan sari hovo harorati pasayib yog`inlar miqdori orta boradi.

**4. Tog`lar mintaqasi**. Tog`larda yoz salqinroq, cho`ldagiga nisbatan qisqaroq bo`ladi. Tog`larimizda 1048 tur shifobaxsh, dorivor o`simliklar o`sadi. Okean sathidan 1400-2500 metr balandlikda archa daraxti o`sadi. Archazorlar shifobaxsh oromgohlardir.



**2.6-Rasm.** *Adir mintaqasi hayvonlari.*



**2.7-Rasm.***Tog` mintaqasi hayvonlari.*

**5. Baland tog` mintaqasi** dengiz sathidan 2700-2800 metr balandlikda joylashgan bu mintaqa hududi uncha katta emas. Mintaqadagi sovuq va nam iqlim sharoitida och qo`ng`ir va o`tloq tuproqlar hosil bo`ladi. Baland tog` mintaqalari subalp va alp o`tloqlaridan iborat. Ayrim quyoshga teskari yonbag`irlarida yil bo`yi qor va muzliklar saqlanishi mumkin.



**2.8-Rasm.***O`zbekiston ekosafari resurslari.*

Ekologik turizmning ekosafari (ov vabaliq ovlash) resurslari ham g`oyat biologik xilma-xillikka ega. Birgina ovlanadigan baliqlarning 83 turi daryolarimiz va suv havzalarimizda ko`patririb muhofaza etilmoqda. Shulardan 18 turi O`zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan. Ovchilik mavsumida suv havzalarimizda ichki va tashqi turist ovchilarini taklif qilishning katta imkoniyatlari bor.

Ekologik turizmni rvojlantirishda “O`zbekiston Ekologik turizmni rivojlantirish konsepsiyasi” dasturlari bo`yicha ishlar amalga oshirilib kelinyapti.

“Orexa” MCHJ tomonidan taqdim etib kelinayotgan O`zbekistonimizning ekoturistik sayohat manzilgohlari:

- **Qorako`l davlat o`rmon ovchilik hududi.** Buxoro viloyatining 875ga maydonini egallagan bu hudud, yovvoyi hayvonlarni ko`paytirishga yo`naltirilgan. Ov hayvonlari yovvoyi to`ng`iz, shoqol, tulki, quyon va yovvoyi bedana.
- **Dalvorzin davlat o`rmon ovchilik hududi.** Toshkentning bekobod tumanida joylashgan, 5360 ga maydonni egallaydi. Ovga ruxsat etilgan hayvonlar tuvaloq, yovvoyi to`ng`iz, shoqol, yovvoyi mushuk, quyon, fazan. Hududda ovchilar qo`nalgohi va baliq ovchilik sharoitlariga ega.
- **Arnasoy davlat o`rmon ovchilik hududi.** Jizzax viloyatining Forish hududida joylashgan bo`lib, 11000 ga maydonni egallaydi. Rang- barang flora va faunaga ega. Palatkalar, ovchilar qo`nalgohi, rekreatsion va baliqovchilik tashkil etiladi.
- **Buxoro davlat o`rmon ovchilik hududi.** Olot tumanida joylashgan bo`lib, 39000 ga maydonni egallaydi. Ov qurollari bilan ta`minlanmagan. Dengizko`ldan uncha uzoq emas.
- **Qo`ng`irot davlat o`rmon ovchilik hududi.** Qaraqalpog`iston hududida joylashgan bo`lib 2606515 ga maydonni qamrab oladi. Baliq ovi va hayvon ovlarini tashkil etish bo`yicha barcha qulaylilarga ega.
- Qashqadaryo davlat o`rmon ovchilik hududi. Mo`ynoq hududining 400970 ga maydonini egallagan. Cho`l va to`qay hayvonlarini ovlashga ruxsat etilgan.

**2.1-chizma.O`zbekiston ekoturizm resurslari***




***Manba:** Tadqiqot natijasida olingan ma`lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Mamlakatimiz ulkan ekoturistik salohiyati bilan butun dunyo ekoturistlar e`tiborini sekin astalik bilan o`ziga qaratib kelmoqda. Bizdagi ekoturlarning nisbatan arzonligini hisobga olib, bizning potensial ekoturist mijozlarimiz rivojlangan mamlakatlar fuqarolari bilan bir qatorda, rivojlanayotgan O`rta va Sharqiy Osiyo davlatlari fuqarolari bo`lib hisoblanadi. Ulardan tashqari ichki 30 mln kishilik mahalliy bozor iste`molchilariga ham egamiz. Albatta, sayyohlarning to`liq hammasi ham ekoturizmni maqsad qilmasligi mumkin, lekin insoniyatni tabiatga bo`lgan hurmat va e`tibori kundan kunga ortib borayotganini hisobga olib, jami turistlar orasida ekoturist bo`lishni xohlaganlari salmog`i ortishiga prognozlar yo`q emas. O`zbekiston ekoturizm mahsuloti potensial xaridorlari yirik ikki qismga ajratiladi: milliy va xorijiy ekoturistlar. O`zbekistonda ekoturizmning sarguzasht turi ko`p ham rivojlanmagani sababli (jungle, o`rmon, tog`, shiddatli daryoda suzish va b.) O`zbekistonga tashrif buyurishni xohlagan ekoturistlarning aksariyati o`rta va katta yoshli insonlardir. Ekoturist profiliga asosan, ular oliy ma`lumotli ziyoli kishilardir. O`zbekiston ekoturizmi ayni kunda madaniy turizm bilan bir qatorda taklif etilayotganini hisobga olib, ekoturistlarni tarix asoslaridan ham yetarli bilim va tasavvurga ega insonlar deyish mumkin.

O`zbekiston ekoturistlarining asosiy mashg`ulotlari safariylar, tabiat sayohatlari, yovvoyi hayvonlarni kuzatish, daryolarda suzish, Chimyon tog`l

arida chang`i uchish, ov mashg`ulotlari, o`simliklar dunyosiga sayohat va boshqalar kiradi.

Qizilqum cho`lida to`rtta yurtali lagerlar mavjud bo`lib, ularda vaqtni juda mazmunli o`tkazish mumkin. Suv bo`yida pik-nik uyushtirish, Aydarko`lda katerda sayohat qilish ,teleskop orqali yulduzlarni kuzatish, gulxan atrofida qo`shiq aytish, jipda qizilqum bo`ylab sayohat,tuyalarga minish va sayr qilish va yana bir qancha qiziqarli mashg`ulotlar bilan shug`ullanish mumkin.

**2.9- rasm.Qizilqumdagi o`tovli lager va Aydarko`l**





Manba:www.ekojurnal.uz

Ekologik turlar alohida tur yoki aralash tipdagi tur sifatida olib borilishi mumkin. Jahon tajribasi shuni ko`rsatadiki,aralash tipdagi turlar, madaniy turizm va ekoturizm birgalikda, umumiy hajmda 15-23% ni tashkil etadi. Misol uchun: turistlar Toshkentga kelgach 1 kunga Ugom - Chotqol tabiiy milliy parkiga borishlari mumkin. Keyin mashhur 3 tarixiy shahar –Samarqand, Buxoro, Xiva bo`ylab o`z sayohatlarini davom ettirishlari mumkin. Bir shahardan ikkinchi shaharga borish paytida qishloqlar va o`tovli lagerlarga kirib o`tishlari mumkin. Bu sayyohlarni yurtimizda o`tkazadigan tunlarini oshrishga katta yordam beradi. Shuningdek,sayohat xarajatsiz bo`lmaydi, ya’ni har bir qo`shimcha tun O`zbekiston turizm bozori uchun qo`shimcha daromad degani.

## 2.3. O`zbekistonda ekoturizmni rivojlanish holati

Xalqaro turizm bozorining hozirgi kundagi eng serdaromad qismlaridan biri bo`lib kelgan ekoturizm yildan yilga - o`siib bormoqda. BTTning ma`lumotiga

ko`ra, 2007- yilda ekoturizm jahon turizm bozorining 7%ini egallagan bo`lib, 2013- yilda bu ko`rsatgich 25 %ga ortib, undan tushadigan daromad yiliga qariyb 473 mln $ni tashkil etadi. 2013 - yilda O`zbekiston bo`ylab qilingan sayohatlarning 15% ekoturizmga tog`ri kelganligi ham yurtimiz bo`ylab sayohatning turli segmentlari oshib borayotganligini bildiradi.

2013-yilda BTT(Butunjahon turizm tashkiloti) tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida Turizmning yurtimizdagi holati va keyingi o`n yillikdagi ko`rinishi to`g`risida hozirgi kundagi potensialimiz va rivojlanishning statistik ma`lumotlarga tayanib taxminiy ma`lumotlar berildi. [19]

Bular quyidagilar:

1) Turizm sanoatining O`zbekiston YaIM ga qo`shgan **bevosita hissasi**:

**Bevosita hissa**-bu hissa to`g`ridan - to`g`ri turist bilan bo`g`liq bo`lib, ya`ni unga xizmat ko`rsatuvchi turistik korxonalar (mehmonxonalar, transport, ko`ngil ochar markazlar, diqqatga sazovor joylar, mehmonxonadagi qo`shimcha xizmatlar, oziq-ovqat va ichimlik xizmatlari, chakana savdo, transport qo`shimcha xizmatlari, madaniy, sport, sog`likni qayta tiklash bilan bo`g`liq xizmatlar, ichki sayyohlar xarajatlari, tashrif buyurgan turistlar xarajatlari)ni o`z ichiga oladi. [20]

Bevosita hissa 1.065 mlrd so`mni tashkil qilgan bo`lib, (YaIM ning 0.9% i) 2014-yilda uning hissasi 5.1% ga o`sishi kutilgan va keyingi yillarda har yili 6,2% dan o`sib borsa, 2024-yilga borib, bevosita hissa 2.030 mlrd so`mga(YaIM ning 0.9%i) yetishi kutilmoqda.(2.2-chizma)

**2.2-chizma***




[19] Quyida beriladigan barcha narx ko’rsatkichlari 2013-yildagi so’mning haqiqiy qiymati va o’zgarish qiymati asosida berilgan.

[20] BMT ning “Tourism Satiletti Account” tashkiloti ta’rifi)

***Manba:** "Travel & Tourism Economic Impact 2014 Uzbekistan"dan olingan ma`lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

2) Turizm sanoatining O`zbekiston YaIM ga qo`shgan **umumiy hissasi**:

**Umumiy hissa**-Turizm sektori hamda bilvosita mablag`lar( investitsiya xarajatlari, davlat tomonidan turizmga qilingan xarajatlar, ta`minlovchilar tomonidan qilingan savdo-sotiq sarflari) va majburiy sarflar( sohada bevosita va bilvosita band bo`lgan ishchilarning oziq-ovqat, sog`liqni qayta tiklash, kiyim-kechak, uy-joy va maishiy tovar va xizmatlar uchun qilgan xarajatlari) kiradi.

Turizm sanoatining YaIMdagi umumiy hissasi 2013-yilda 3.430.0 mlrd so`m ni tashkil qilgan ( YaIM ning 3.0% i), bo`lib 2014-yilda bu ko`rsatgich 2.4% ga o`sishi kutilgan (3.628.6 mlrd so`m), shu o`sishlar asosida umumiy hissa har yili 6.2% ga o`sib borsa 2024-yilga borib ko`rsatgichlar qiymati 6.603.6 mlrd so`mni tashkil qilib, uning YaIM dagi ulushi 2.9%i kabi ko`rinishida bo`lishi pragnoz qilingan.(2.3-chizma)

**2.3-chizma.***




***Manba:** "Travel & Tourism Economic Impact 2014 Uzbekistan"dan olingan ma`lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

3) **Turistik xizmatlar eksporti**-bu xorijiy turistlarning mamlakat ichidagi bisnes va dam olish maqsadida qilgan sarf xarajatlari, shuningdek transport xarajatlarini ham o`z ichiga oladi. Faqatgina ta`lim uchun qilingan sarflar bundan mustasnodir.

2013-yilda O`zbekistonda turistik xizmatlar eksporti 524.9 mlrd so`mni tashkil etgan bo`lib, bu umumiy eksport hajmining 1.5% ni tashkil qilgan. 2014-yilda esa eksport hajmining o`sishi 0.3% ga yetishi kuzatilgan bo`lib, xorijiy turistlar soni 1 milliondan oshdi. 2024 yilga borib bu ko`rsatgich 2.257.000 kishiga yetib umumiy eksport mablag`i 1.022.4 mlrd so`m ga yetadi, agarda o`rtacha yiliga 6.9% ga o`sish kuzatilsa (YaIM ning 1.5%i ni tashkil qiladi). (2.4-chizma)

Shu asnoda turizmni rivojlantirish maqsadida ham investitsiya kiritish yildan yilga oshib bormoqda. Masalan 2013-yilda kapital investitsiya miqdori 602.5 mlrd so`m(umumiy investitsiyaning 2.2%i) bo`lgan bo`lsa, bu ko`rsatgich 2014-yilda 7.5% ga o`sgan. Keyingi 10 yillikda investitsiya hajmining o`rtacha 6.2% dan o`sib borishi kuzatilsa, 2024-yilga borib soha uchun jalb qilingan umumiy summa miqdori 1188.2 mlrd so`mga yetadi va bu umumiy milliy investitsiyaning 2.2% ni tashkil qiladi.

**2.4-chizma.***

***Manba:** "Travel & Tourism Economic Impact 2014 Uzbekistan"dan olingan ma`lumotlar




asosida muallif ishlanmasi.

Hozirda dunyo bo`yicha turizmning asosiy 2 turi- biznes va ta`til davomidagi dam olish turizmi bu asosiy maqsad hisoblanadi. Yurtimizda 2013-yilda dam olish uchun qilingan(kirish va ichki turizmda) sarflar umumiy

sarflarning 66.6%ni tashkil qilgan bo`lsa(1335.2 mlrd so`m), qolgani biznes turizmiga tegishli(670.1 mlrd so`m)(2.5-chizma).

2014-yilda dam olish maqsadida qilingan sarflar 1389.3 mlrd so`mni tashkil qilishi(4% ga o`shish kutilgan) va 2024-yilga borib o`rtacha har yili 6.2%ga o`ssa 2.527mlrd so`mga yetishi pragnoz qilingan.(2013-yilning haqiqiy qiymatida). Biznes turizm uchun qilingan sarflar esa 2014-yilda 7.2% ga o`sgan va 722.4 mlrd so`mni tashkil qilishi kutilgan, o`z navbatida 2024-yilga qadar 6.5% da o`sib borsa, uning miqdori 1352.1 mlrd so`mni tashkil qiladi.

**2.5-chizma.***




***Manba:** "Travel & Tourism Economic Impact 2014 Uzbekistan"dan olingan ma`lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Mahalliy turistlarning sarflari 2013-yilda umumiy turizmdan qilingan sarflarning 73.8% ni tashkil qilgan bo`lsa, xorijiy turistlar mamlakatimizda qilgan sarflar esa 26.2% ni tashkil qilgan.(2.6-chizma.)

2014-yilda mahalliy turistlar qilgan sarf xarajatlar 7.1%ga oshib, 1.585.1 mlrd so`mga bo`lgan, 2024-yilga borib 2.857.1 mlrd so`m bo`lishi prognoz qilingan, agarda o`rtacha 6.1% ga o`sish kuzatilsa. Bundan ichki turizmning muhimlik darajasining qanchalik ekanligini ko`rishingiz mumkin. Xorijiy tashrif buyurgan turistlar esa 2014-yilda 526.6 mlrd so`m miqdorida sarf qilganlar.

Keyingi 10 yillikda uning miqdori 1.022.4 mlrd so`mga yetishi taxmin qilingan(2013-yilning haqiqiy qiymatida).

**2.6-chizma.***




***Manba:** "Travel & Tourism Economic Impact 2014 Uzbekistan"dan olingan ma`lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Demak yuqoridagi ma`lumotlar asosidan bitta ummumiy jadval keltirib chiqaradigan bo`lsak, u jadvalda o`zida yurtimizdagi turizm rivojlanishi ni qay darajada ekanligini bilib olsak bo`ladi.(2.3-jadval)

**2.3-jadval***

Turizmning O`zbekiston iqtisodiyotiga qo`shgan hissasi (2013-yil haqiqiy qiymatida)

| O`zbekiston mlrd so`m, | 2008 | 2009 | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2024 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. Tovar va xizmat - lar eksporti | 360.5 | 513.0 | 572.8 | 427.5 | 556.3 | 524.9 | 526.6 | 1022.4 |
| 2. Mahalliy sarf xarajatlar(hukumat xarajatlari ham kiradi) | 954.6 | 970.2 | 1179.7 | 1271.7 | 1380.9 | 1480.4 | 1585.1 | 2857.1 |
| 3. Davlat miqyosi - dagi turizm iste`moli | 1315.2 | 1483.2 | 1752.4 | 1699.2 | 1937.2 | 2005.3 | 2111.7 | 3879.5 |
| 4. Turizmni ta`min lovchilar tomonida qilingan savdo sotiq | -621.9 | -693.0 | -817.9 | -797.4 | -910.9 | -943.3 | -995.1 | -1849.5 |
| 5. YaIM dagi bevo sita hissasi (=3+4) | 693.2 | 790.1 | 934.6 | 901.8 | 1026.4 | 1061.9 | 1116.6 | 2330.0 |
| 6. Bevosita va majburiy sarflar yig`indisi | 578.5 | 659.4 | 779.9 | 752.6 | 856.5 | 886.2 | 931.8 | 1694.1 |
| 7. Kapital investitsiyalar | 448.1 | 488.8 | 529.4 | 521.7 | 563.3 | 602.5 | 647.6 | 1188.2 |
| 8. Davlat investitsiyalari | 134.5 | 170.5 | 192.8 | 202.3 | 219.5 | 236.7 | 255.2 | 484.3 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 9. Import tovarlar va bilvosita xarajatlar | -36.8 | -30.2 | -32.0 | -37.3 | -43.2 | -46.4 | -51.6 | -119.8 |
| 10. Majburiy xarajatlar | 425.9 | 505.7 | 616.2 | 588.6 | 659.3 | 689.1 | 729.0 | 1326.7 |
| 11. YaIM dagi Umumiy hissa (=5+6+7+8+9+10) | 2243.5 | 2584.3 | 3020.8 | 2929.6 | 3281.8 | 3430.0 | 3628.6 | 6603.6 |
| 12. Sohada islovchilar ta`siri (`000) Soha bevosita ishlovchillar | 84.7 | 93.3 | 106.8 | 100.0 | 110.5 | 111.1 | 113.8 | 168.1 |
| 13. Turizm sohasida bevosita va bilvosita ishlovchilar | 281.7 | 313.7 | 355.3 | 333.7 | 362.8 | 368.3 | 379.0 | 556.1 |
| 14. Chiqish turizmni xarajatlari | 89.0 | 87.4 | 92.6 | 79.3 | 86.0 | 84.5 | 88.7 | 149.4 |

***Manba:** "Travel & Tourism Economic Impact 2014 Uzbekistan"dan olingan ma`lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi ma`lumotlar asosida yurtimizda ichki turizm qay darajada rivojlanganini ko`rishimiz mumkin. Albatta keyingi o`n yillikda bundan ham yuqori natijalarga erishamiz. Buning uchun eng avvalo mavjud resurslarimizdan oqilona foydalanib bilishimiz, turizm industriyasidan tushayotgan daromadlarni optimal ravishda to`g`ri yo`naltira olishimiz kerak. Qolgan turizm rivojlangan davlatlar kabi yo`llarni o`rganib chiqib, bizga mos keladiganini yurtimizda tadbiq qilishimiz shart va zarur.

**2.7- chizma. O`zbekiston Respublikasi 2013-yilda xizmat ko`rsatgan turistik firmalar sonining hududiy bo`linishi***




***Manba:** 2014-yil "O`zbektruizm" MK ning statistik bluyetidan olingan ma`lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Shuningdek, yurtimizda turizmning rivojlanishiga o`z hissasini qo`shib borayotgan turoperatorlik faoliyati ham bevosita aloqador bo`lib, ularning soni 2014-yilda 534taga(2013-yilga nisbatan 34%ga ortgan) yetdi. Hozirgi kunda Buxoro viloyatining o`zida 16ta turoperatorlik kompaniyasi faoliyat yuritib kelmoqda. Bu ko`rsatgich boshqa hududlararo yuqoridagi chizmada turlicha taqsimlangan.

Yurtimizda turizm salohiyati yildan – yilga o`sib kelmoqda, hozirgi kunda turizmni yanada rivojlantirish bo`yicha bir qancha amaliy dasturlar va festivallar keng tarzda nishonlanmoqda.

**2.8-chizma. O`zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlar***




M … sosida
m…

Bunday xalqaro festivall va yarmarkalarning yurtimiz bo`ylab keng targ`ib qilinishi natijasida yurtimizda 2008-yildan boshlab sayohlar soni sezilarli darajada oshib ketdi. Bunga asosiy sabablardan biri, yurtimiz bo`ylab keng miqyosli ishlab chiqilgan "Asrlar sadosi" xalqaro festivali bo`ldi.

**2.9-chizma.O`zbekiston Respublikasiga 2006-2014-yillarda tashrif buyurgan xorijlik turistlar**

| Yillar | Kishi hisobida | O`tgan yilga nisbatan o`sish, % |
|---|---|---|
| **2006** | 559.460 | 169,5 |
| **2007** | 903.114 | 161,4 |
| **2008** | 933.358 | 103,3 |
| **2009** | 1.294.429 | 138,7 |
| **2010** | 1.055.453 | 81,5 |
| **2011** | 1.472.245 | 139,5 |
| **2012** | 1.946.607 | 132,2 |
| **2013** | 2.028.620 | 104.2 |
| **2014** | 1.861.961 | 91,8 |

***Manba:** 2014-yil "O`zbektruizm" MK ning statistik bluyetidan olingan ma`lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

2014- yil turizm ko`rsatgichi bir muncha oqsoqlanib qolganligi 2015-yilga ham o`z ta`sirini o`tkazmay qo`ymaslik ehtimoli yo`q emas. Yurtimiz bo`ylab mavsumiylikning o`lib borayotganligi sabablari bo`yicha to`xtalmasdan bu holatni bartaraf etishga harakat qilishimiz kerak. Buning uchun biz turizm bozorida taklif etilmagan tabiiy turistik dasturlarni taklif etishimiz va yurtimiz bo`ylab o`tadigan milliy bayram va yarmarkalarimiz dasturini namoyish etishimiz darkor.

Hozirgi kunda ekologik turizm dasturlarini taklif etayotgan turistik firmalarining aksariyati Toshkent va Samarqand shahridagi turoperatorlik firmalari bo`lib,ulardan ayrimlarining faoliyati bilan tanishib chiqamiz.

**2.10-chizma. 2014-yilda ekoturistik dasturlarni taklif etib kelayotgan top 12 turistik firmalar va ularning brendlari ***

* ... maullif izlan... na... tuzilgan roy`...

Ushbu 12 ta turistik firmadan 3 tasi haqidagi tahlilni ko`radigan bo`lsak, bu top 12 talikka nega ajratganlarimizni va ularga berilgan bahoni bilib olasiz.

Uchala turoperatorlik ham Toshkent shahrida joylashgan. Turoperatorlikni bir necha standartlar orqali baholaymiz. Birinchi navbatda ish faoliyati davri va sayohat dastur maskanlari bo`yicha baholaymiz.

**2.11-chizma.***



***Manba:** Tadqiqotlar natijasida maullif ishlanmasi.

**<u>Orexa.com turoperatorligi</u>** - 11 yillik malakasiga ega bo`lgan kompaniya bo`lib, u 2003-yil noyabrda tashkil topgan. O`zbekiston – Qazog`iston – Azarbayjon – Turkmaniston – Qirg`iziston – Tojikiston- Armaniston – Gruziya davlatlari bo`ylab 66dan ziyod sayohat dasturlarini ishlab chiqqan. Turopeartorlik O`zbekiston bo`ylab quyidagi turistik dasturlarni taklif etadi:

- Tarixiy turistik dastur;
- Ekologik turizm dasturlari;
- Sport&Ekstreminal turizm dasturlari;
- Qishloq turizmi dasturlari;
- Budjet turizm dasturlari;
- O`zbekiston bo`ylab kombinatsion turistik dasturlar (madaniyat-tarix-arxitektura qazilmalari);
- Ov turizm dasturlari;
- Qishloq turizm dasturlari;
- Sarguzasht turizm dasturlari;
- Cho`l turizm dasturlari;
- Kunlik ekskursiya dasturlari.

Ushbu turoperatorlikni ekologik turizmga katta e`tibor qaratgan turoperatorlik desak adashmagan bo`lammiz. U yurtimizdagi ko`llar(Aydar ko`l, Dengiz ko`l), cho`l – o`rmon zonalari(Buxoro cho`l-o`rmon zonasi-Dengiz ko`l hududi yaqinida, Qorako`l, Dalverzintepa, Arnasoy cho`l-o`rmon zonasi , Jayron ekomarkazi cho`l zonasi,), park va bog`lar(Aqua,Aqualand ko`ngil ochar kompleksi, Toshkent land, Xitoy bog`i, Toshkent hayvonot bog`i, Toshkent ko`lidagi golf maydoni. Botanika bog`i, Alissher Navoiy nomidagi markaziy bog`, Mustaqillik maydoni, Anhor parki, G`afur G`ulom bog`i, Kulolchilar bog` maydoni, Mirzo Ulug`bek bog`i, Bobur bog`i, Gulshan parki, Abdullo Qodiriy parki, Amir Temur maydoni, Bog`i Eram madaniyat parki, Shahidlar maydoni), daryolar(Amu daryo, Sirdaryo), dengiz(Orol dengizi), tog`lar(Zomin, Chatqol, Tyan- Shan, Nurata tog`li hududlar) va ko`plab sanatoriya markazlari bo`ylab ekoturistik dasturlarni taqdim etgan. Turopeartorlik web-sahifasida sayyohlar uchun kerakli barcha ma`lumotlar bo`lib, ular 5tilda(rus,ingliz,yapon,xitoy,ispan) tarjima qilingan. Web-sahifa animatsion tarzda tashkillashtirilgan, tashqi aloqa va

manzillar to`liq keltirilgan.

**2.10-rasm.Orexa.com turoperatorligi web-sahifasi ko`rinishi***




*Manba: [http://orexca.com/tours_uzbekistan.shtml](http://orexca.com/tours_uzbekistan.shtml)

**Travel Ornament** – turoperatorligi ish faoliyati malakasi davri 4 yilni tashkil etib, turoperatorlik O`zbekiston viloyatlari bo`ylab 25 ga yaqin sayohat dasturlarini taklif etadi. Turopeartorlik O`zbekiston bo`ylab quyidagi turistik dasturlarni taklif etadi:

- Madaniy – tarixiy turistik dastur;
- Ekologik turizm dasturlari;
- Sport turizm dasturlari
- Ekstreminal turizm dasturlari;
- Ov turizm dasturlari;
- Kunlik ekskursiya dasturlari.

Turoperatorlik yurtimizning xushmanzara va afsonaviy joylari bo`ylab sayohat dasturlarini taklif etadi. Web-sahifasidagi ma`lumotlar faqatgina 2til(rus va ingliz tili)da taqdim etilgan bo`lib, litsenziya va sertifikat nusxasi ham joylashtirilgan.

**2.11-rasm. Travel Ornament turoperatorligi web-sahifasi ko`rinishi***




*Manba: [www.travelornament.com/tury](http://www.travelornament.com/tury)

**Atlanta Travel** - ham Orexa.com turoperatorligi bilan ish faoliyati malakasi davri bir xil bo`lib, turoperatorlik O`zbekiston bo`ylab 26ga yaqin sayohat dasturlarini tashkillashtiradi. Turopeartorlik O`zbekiston bo`ylab quyidagi turistik dasturlarni taklif etadi:

- Tarixiy turistik dastur;
- Ekologik turizm dasturlari;
- Sport turizm dasturlari;
- O`zbekiston bo`ylab kombinatsion turistik dasturlar (madaniy turizm - ekologik turizm);
- Ov turizm dasturlari;
- Hindistonlik sayyohlar uchun turizm dasturlari;
- Pokistonlik sayyohlar uchun turizm dasturlari;
- Kunlik ekskursiya dasturlari.

Turoperatorlikning web-sahifasi animatsion yoqimli tarzda ishlangan bo`lib, har bir sayyohni o`ziga jalb etmay qo`ymaydi. Ammo web-saytda turoperatorlikning litsenziya va sertifikat raqami hamda ilovasi joylashtirilmagan. Ma`lumotlar bazasi Orexa.com va Travel Ornament turoperatorligiga nisbatan sayozroq. Web-sahifadagi ma`lumotlar 2til(rus va ingliz tili)da keltirilgan.




**2.12-rasm. Atlanta Travel turoperatorligi web-sahifasi ko`rinishi***

*Manba: www.openuzbekistan.com/en/tours

**II bob** bo`yicha xulosa qiladigan bo`lsak, O‘zbekistonda xorijiy mehmonlarni jalb qilishda ko‘plab resurslar mavjud: hayvonot va o‘simliklar olamiga boy bo‘lgan cho‘l va qo‘riqxonalar, tog‘ cho‘llari va daryolar, 300 dan ortiq shifobaxsh mineral suv manbalari - turizmni faol ravishda rivojlantirish uchun katta ahamiyatlidir. Har bir viloyatimiz o`ziga xos turistik potensialga ega ekanligi va ularning hech biri takrorlanmasligi sayyohlarni hayratga solib kelmoqda. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan turoperatorliklar o`zlarining dasturlariga ekologik turizmni ham qo`shib,sayohat davomiyligini oshirsalar, yurtimiz turizm bozori uchun yaxshi sarmoya kelib tushar edi. Shu orqali bizdagi ekoturistik resurslardan foydalanish ham keng yo`lga qo`yilardi.

# III-BOB. Buxoro viloyatida ekologik turizmga ixtisoslashgan turoperatorlik xizmatlarini tashkil etish

## 3.1. Buxoro viloyati bo`yicha innovatsion ekoturistik marshrutini ishlab chiqish

Yurtimizning har bir go`shasi o`zining ma'lum bir tarovati va yutuqlari bilan mashhur hisoblanadi. Shunday betakror tabiati-yu noz-ne`matlari, boy tarixiy merosi-yu afsonalar osha qolgan imoratlari, milliy san`ati-yu hamon qadri baland mato va liboslari, mo`jizkor tabiati-yu noyob hayvonot va o`simlik dunyosi bilan tanilgan viloyatlarimizdan biri Buxoroi sharifdir. Buxoro haqida so`z borar ekan har bir inson o`zida ajib hisni tuyadi desak adashmagan bo`lamiz.




Buxoro viloyati O`zbekistonning janubi-g`arbida joylashgan. Qizilqum cho`li Buxoro viloyati hududining katta qismini egallaydi. Viloyatning umumiy maydoni – 39 400 kvadrat kilometr. Viloyat tub kontinental, quruq iqlimga ega. Viloyat aholisi taxminan 1 543,9 ming kishiga teng, shundan qariyb 68 foizi qishloq joylarida, 32 foizi shaharlarda yashaydi. Viloyat 11 ma`muriy tumanlardan iborat. Viloyatning ma`muriy markazi – Buxoro shahri bo`lib, uning aholisi taxminan 263400 kishidir. Viloyatning boshqa yirik shaharlari – G`ijduvon, Romitan va Kogondir.

Buxoro viloyati Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abdulxoliq G`ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo`shgan minglab allomalarning vatani hisoblanadi. Birgina Buxoroning o`zida 7000 dan ortiq avliyolar yashab o`tgan. Islom ahli o`rtasida Buxoro viloyati hududida joylashgan olamga mashhur "Yetti pir"ning qadamjoylarini ziyorat qilish muqaddas haj ziyoratiga tenglashtirilgan.

Qadimiy Buyuk Ipak yo`li Buxoro viloyati orqali o`tgan va bu sharif shahar ilm-fan, hunarmandchilik, savdo va Islom dini madaniyatining yirik markazlaridan biri bo`lgan. Buxoro 2500 yillikdan ortiq boy tarixga ega.

Buxoro viloyati hududida juda ko`plab betakror qadimiy obidalar saqlanib qolgan bo`lib, mustaqillik yillarida ular obod va go`zal ziyoratgohlarga aylantirilgan. Ana shunday tarixiy obidalarning 2000 dan ortig`i YUNESKO tashkilotining muhofazasiga olingan. Viloyatning boy madaniy me`rosi ming

yillar davomida butun dunyoni o`ziga rom etib kelgan. Viloyatda 16 dan ortiq sayyohlik kompaniyalari hamda 85ga yaqin zamonaviy mehmonxonalar faoliyat olib bormoqda.

Buxoroning diqqatga sazovor joylari:

**Qal`alar**

- Ark qo`rg`oni (XVIII-XX asr)
- Buxoro devorlari va darvozalari

**Me`moriy ansambl va komplekslar**

- BahouddinNaqshband (XVI asr)
- Labi-havuz (XVI-XVII)
- Poy-Kalon (XII-XVI)
- Chor Bakr (XVI-XX asrlar)

**Maqbaralar**

- Somoniylar maqbarasi (IX asr)
- Bo`yan-qulixona maqbarasi (1358-yil)
- Sayf ad-din Boxarzi maqbarasi (XIV asr)
- Chashmi-Ayub maqbarasi (1380-yil)

**Madrasa va xonaqohlar**

- Qo`sh madrasa (1566-1588 yillar)
- Ulug`bek madrasasi (1417-1652 yillar)
- Gavkushon madrasasi (XVI asr II yarmi)
- Miri Arab madrasasi (XVI asr)
- Mulla Tursunjon madrasasi (XVI asr)
- Ko`kaldosh madrasasi (1568-1569 yillar)
- Nodir devonbegi madrasasi (1622-1623 yillar)
- Nodir devonbegi xonaqohi (1619-1620 yil)
- Volidayi Abdulazizxon madrasasi
- Jo`ybori Kalon madrasasi
- G`oziyon madrasasi
- Xalifa Niyozqul madrasasi

- Fayzobod xonaqohi (1598-1599 yil)
- Xalifa Xudoyd xonaqohi (XVIII asr)
- Hoji Zayniddin xonaqohi (XVI asr I yarmi)

**Masjidlari**

- Masjidi Kalon (1514-yil oxirlari)
- Masjidi baland (XVI asr boshlari)
- Katta markaziy masjid (1712-yil)
- Ko`rpa masjidi (1637-yil)
- Namozgoh masjidi (XII-XVI asr)
- Mag`oki Attor masjidi (XII-XVI asr)

**Savdo rastalari**

- Toqi Sarrafon (XVI asr)
- Toqi Zargaron (1586-1587 yillar)
- Toqi Telpakfuro`shon (XVI asr)
- Tim Abdullaxon (1577-yil)

Bugungi kunda ham Buxoro viloyati O`zbekiston Respublikasining ilm-fan, hunarmandchilik, ma`naviyat va sayyohlik markazlaridan biri hisoblanadi. Buxoro viloyati aholisining ilmiy salohiyati, ma`naviy yetukligi hamda mehnatsevarligiga ko`ra Respublikada eng oldingi o`rinlarda turadi.

Eng faol sanoat yo`nalishlari paxta tozalash, to`qimachilik va ipakchilik sanoatidir. Kashtachilik, kulolchilik va ganjkorlik singari an`anaviy o`zbek hunarmandchiligi qayta tiklangan. Buxoro shahri qorako`l terisini qayta ishlash, duradgorlik, yog`och o`ymakorligi, zargarlik, misgarlik, nafis san`at namunalarini yaratish, shuningdek rivojlangan oziq-ovqat sanoatiga ega.

Buxoro shahridagi xalqaro aeroport, zamonaviy kommunikatsiya tizimlari, xalqaro darajadagi mehmonxonalardagi qulayliklar, go`zal va betakror tarixiy obidalar, mehmondo`st, soddadil va samimiy insonlar sayyohlar qalbida abadiy muhrlanib qoladi.

Shuningdek, Buxoro hududida hali to`liq kashf etilmagan katta ekoturistik bir necha hududlar mavjud bo`lib, ulardagi boy flora-fauna olami dunyo olimlari tomonidan haligacha o`rganilib kelinadi.

Bizga ma`lumki, Buxoro hududi cho`l zonasiga joylashgan bo`lib, hududda suptropik iqlimiga ega bo`lgan kontinental cho`l iqlimi hukmronlik qiladi. Hududning cho`l zonasida joylashganligi, unda yetishtirilayotgan shirin shakar mevalar tarkibidagi vitaminlar darajasini yanada oshiradi va sizga bir umrlik lazzat ta`mini in`om etadi. Buxoroga tashrif buyurishingiz bilanoq sizga tabiatimiz ne`mati bo`lgan anor, uzum, anjir, olma, shaftoli, zaldori va boshqa noz – ne`matlardan ulashadilar. Shirmoy nonlar-u shirinliklarni ta`riflamasak ham bo`ladi. Bunday ne`matlardan bahramand bo`lishni istasangiz birgina Buxoroga tashrif buyurishingiz kifoya.

Buxoroning cho`l zonasida joylashganligining yana bir yutuqli tarafi – ayrim noyob hayvonlarning bu hududda yashab ketish imkoniyatining kengligidadir. Bu borada o`zining afsonaviy tarixi, noyob flora va fauna olamiga ega, 16522 gektarlik maydonga yoyilgan “Jayron” ekomarkazi va uning yaqinidagi Milliy bog` misol bo`la oladi.

Yana shunday bir ekoturistik manzilgohlaridan biri Qora qir buyurtmaxonasi bo`lib, huddud 30000 gektarlik maydonga ega 1992-yilda shkil etilgan bo`lib, keng maydonga yoyilgan ulkan qirli vody sifatida tanilgan.

Ov turizmi hududimizdagi eng mashhur joyi Dengiz ko`l hududi bo`lib,1990-yilda tashkil topgan. Dengiz ko`lning bir qismi To`dako`l bilan qo`shilib ketgan bo`lib umumiy maydoni 50000 gektarlik suv va atrofi cho`lli hududdir. Uchala hudud ham katta ekoturistik potensialga ega buyurtmaxonalar bo`lib, ulardan faqatgina “Jayron” ekomarkazi 2008-yildan buyon ekoturizmga e`tibor qarata boshladi.

“Jayron” ekomarkazi ilmiy-ishlab chiqarish davlat tashkiloti bo`lib, kamayib borayotgan jonivorlar turlarini ko`paytirish maqsadida 1976 - yil may oyida tashkil etilgan. Ekomarkaz O`zbekiston respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish” davlat qo`mitasiga qarashli va uning himoyasida.

**“Jayron” ekomarkazi faoliyatining asosiy yo`nalishlari:**

- Noyob turdagi jonivorlar biologiyasini o`rganish va ularni ko`paytirish;
- Hayvonot bog`lari va boshqa zoologik kolleksiyalar uchun noyob turdagi jonivorlarni yetkazib berish;
- Tabiiy populyatsiyani to`ldirish maqsadida ajratilgan jonivorlarni tabiatga qo`yib yuborish;
- Ilmiy tadqiqot;
- Ekoturizm;
- Ekologik bilim olish, malaka oshirish va talabalar amaliyoti;
- Biotexnik tadbirlar va muhofaza.

Ekomarkaz har yili 3500 dan 5000 gacha sayyohlarni qabul qiladi. Bu bir tomondan tabiatni muhofaza qilish g`oyalarini targ`ibot qilishga xizmat qilsa, boshqa tomondan markazga qo`shimcha daromad keltirib, uning faoliyatini kengaytirishga yordam beradi.

Ekomarkazning rivojlanish istiqbollarida ekoturizm muhim yo`nalish hisoblanib, tashrif markazi, ekologik marshrutlar va axborot maydonlari barpo etish, infrastruktura yaratish rejalashtirilgan.

Ayni damda “Studiosus” fondi ko`magida ekomarkaz barcha turistik infrastrukturani yangilash bilan ham shug`ullanmoqda. 2010 - yildayoq turistlarga yangi marshrutlar, qiziqarli ekskursiyalar va yuqori darajali xizmat taklif etildi.

“Jayron” ekomarkazi o`zining ekoturistik rekreatsion resurslari va xizmatlari bilan ajralib turadi. Ekomarkazda tabiat qo`ynida ekskursiya qilish bilan bir qatorda turli xil noyob o`simlik va hayvonlarni kuzatish imkoniyati yaratilgan. Ilmiy tadqiqot maqsadida tashrif buyuruvchi sayyohlar o`z bilimlarini amaliyotda oshirishlari, hayvonlar parvarishini tomosha qilishlari mumkin.

Buxoro hududida ekoturizmni yanada rivojlantirish, sayyohlar oqimini kengaytirsh uchun xizmat ko`rsatish madaniyati va sifatiga e`toborni qaratish ekomarkaz oldida qo`ygan maqsadlaridan biridir.

Ekomarkaz – tashrif buyuruvchi sayyohlarni yildan-yilga hayratlantirib kelmoqda. Buning natijasi o`laroq sayyohlar oqimi ham ortib bormoqda. 2011 -

yilda ekomarkazga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni 1200 nafar bo`lgan bo`lsa, hozirgi kunga kelib bu natija 50-60%ga oshdi.

2008 - 2012 – yilda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi, Davlat biologik nazorati va boshqa homiy tashkilotlar va jamg`armalar ko`magida ekoturistik markaz qurilishi rejalashtirilgan edi. Shu munosabat bilan “Jayron” ekomarkazi hududida, tabiatga putur yetkazib qo`ymaslik uchun barcha ehtiyot choralarini ko`rgan holda, milliy bog` tashkil etildi. Dunyoning mashhur milliy bog`lari kabi xorijlik va yurtimiz mehmonlari bu boqqa kelib, Buxoro o`lkasi tabiatining barcha go`zalligidan bahramand bo`la olishlari uchun ekoturistik safarlar tashkil etilishi ham ko`zda tutiladi. Ekoturizm asosan ekomarkazga qo`shilgan yangi hududda yo`lga qo`yiladi. Bundan tashqari piyoda yoki avtomobilda keladigan turistlar Ekomarkaz hududidagi ko`llarning sohiligacha borishiga imkon berilishi mumkin.

2015- yilda “Jayron” ekomarkazi o`z sayyohlari uchun yangidan – yangi xizmatlarni taklif etadi. Ularning kalkulyatsiyasini quyidagi jadvalda ko`rish mumkin.(3.1-jadval)

**3.1-Jadval.**

**2015 – yilda taklif etilgan xizmatlar kalkulyatsiyasi***

**(*so`mda ifodalangan*)**

| № | Xizmatlar | 1 kishilik | Mahalliy aholi uchun | | | Chet ellik mehmon Larga |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Katta Lar | Student lar | 7-16 yoshlik lar | |
| 1 | Marshrut 1. «Valyorli kompleks » Yayov ekskursiya: davomiyligi 30minut | 1 kishi | 2 000 | 1000 | 1000 | 3$ |
| 2 | Marshrut 2. « Valyorli kompleks – ko`l hududi» Yayov ekskursiya: 2 km uzoqlikda, davomiyligi: 2-2.5 soat | 1 kishi | 4 000 | 2000 | 1500 | 11$ |
| 3 | Marshrut 3. « Valyorli kompleks – ko`l hududi- I vishka » Yayov ekskursiya: 5 km uzoqlikda, davomiyligi 3.5-4 soat | 1 kishi | 5000 | 2500 | - | 13$ |
| 4 | Marshrut 4. « Valyorli kompleks - | 1 kishi | 5000 | 3500 | 2000 | 20$ |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Janubiy qismda joylashgan kanal hududi– Adaptatsiya markazi » Transport orqali ekskursiya: 7 km uzoqlikda, davomiyligi 2soat | | | | | |
| 5 | Marshrut 5. « Valyorli kompleks - Janubiy qismda joylashgan kanal hududi– Adaptatsiya markazi – Milliy bog` hududi bo`ylab sayohat» Transport orqali ekskursiya: 40 km uzoqlikda, davomiyligi 4-5 soat | 1 kishi | 10000 | 7000 | 5000 | 20$ |
| 6 | Marshrut 6. «Qaynag`och qiri» Yayov ekskursiya: 15km uzoqlikda, davomiyligi 4 -5 soat | 1 kishi | 10000 | 7000 | --- | 20$ |
| 7 | Marshrut 7. «Tungi ekskursiya» Yayov ekskursiya to kuzatuv minorasigacha: 2-3 km uzoqlikda, davomiyligi 2soat | 1 kishi | 7000 | 4000 | --- | 11$ |
| 8 | Marshrut 8. «Tungi ekskursiya» Transport orqali ekskursiya: 10-15 km uzoqlikda, 3soat davomida | 1 kishi | 10000 | 7000 | --- | 15$ |
| 9 | Professional video va foto | 1 kun | 245 000 | ---- | ---- | 100$ |
| 10 | «Jayron» ekomarkazining transportlaridan foydalanish | 4 ta guruh | 20000 s. soatiga | 20000 s. soatiga | 20000 s. soatiga | 15$ soatiga |
| 11 | Mehmonxona 1 sutkasi(oshxona va dushdan tashqari) | 1 kishi | 20000 | 10000 | ---- | 15$ |

***Manba:** "Jayron" ekomarkaz materiallari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Yuqoridagi xizmatlar narxi turistlar uchun ham mahalliy aholi uchun ham qulaylashtirilgan bo`lib, ekomarkaz olingan daromadining barchasini hayvonlar va o`simliklarni parvarish qilish uchun sarflaydi. Bu haqidagi ma`lumotlar ekomarkaz web- sahifasida ham keltirilgan .

O`zining boy ekologik salohiyati va betakror flora-fauna olami bilan dunyo e`tirofida bo`lib kelgan markaz hududida loyihalashtirilgan Milliy bog` infrastrukturasini yaxshilash orqali mazmunli hordiq va sayohat tashkillashtirish borasida "Ko`hna sahrodagi yangi dunyo" ekoturistik kompleks loyihasini taklif etdim.

**Loyihaning asosiy mazmuni**: "Loyihalashtirilgan milliy bog`

infrastukturasini yaxshilash orqali mazmunli hordiq va sayohat tashkillashtirish. Buxoro hududiga tashrif buyurayotgan sayyohlarga yurtimizdagi boy ekologik potentsialga ega bo`lgan "Jayron" ekomarkazi va Milliy bog` hududlarining ekoturistik imkoniyatlarini namoyish etish, shu orqali sayohatchilar tashrifini ko`paytirish. Hududni dunyo miqyosidagi birinchi o`rindagi ekoturistik markazga aylantirishdir".

«Ko`hna sahrodagi yangi dunyo yohud tabiat tuhfasi» ekoturistik kompleks loyihasining afzalliklari:

- Tabiiy mo`jizakor dunyoning bir bo`lagi bo`lgan "Jayron" ekomarkazi ekoturistik erkin hudud sifatida dunyoga tanilib, hududga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimi 40-50% oshadi;
- Hududda ichki va kirish turizm faoliyati rivojlanib, turistik bozorda o`z mavqe`iga ega istiqbolli ekoturistik hudud sifatida kirib boradi.
- O`zbekistonning cho`l zonasida joylashgan yagona ekoturistik "Milliy bog`" da ekoturizmni rivojlantirish orqali hudud iqtisodiy salohiyati 2 barobarga oshadi ;
- Hozirgi kunga global muammoga aylangan ekologik yo`qotishlar kamayadi;
- O`sib kelayotgan yosh avlod tabiatga muhabbat ruhi bilan ulg`ayadi;
- Dastur ishga tushishi bilan Ekomarkaz o`z xarajatlarini ekoturizmdan kelayotgan daromad hisobiga qoplash imkoniyatiga ega bo`ladi.

«Ko`hna sahrodagi yangi dunyo yohud tabiat tuhfasi» ekoturistik kompleks loyihasining foydalilik multikatorini hisoblash(Asosiy texnik — iqtisodiy parametrlari):

- Ekomarkaz yillik xarajatlari 100 mln so`m, daromadi esa 125-150 mln so`mni tashkil etadi. Agarda dastur ishga tushirilsa, daromadlar xarajatlardan 4,5 marta yuqori bo`ladi;
- Milliy bog` hududlari obodonlashtirilib, tabiat mo`jizasi asrlar osha barhayot yashaydi;
- O`sha hududda yashovchi mahalliy aholi ko`payadi, ularda turistik madaniyat

shakllanib,  ish bilan bandlik oshadi.

- Ekoturistik resurslar qadr–qiymati yanada oshib, bunday loyihalarni ko`proq realizatsiya qilish imkoniyati ko`payadi;
- Hududda yaratiladigan «Ko`hna sahrodagi yangi dunyo yohud tabiat tuhfasi markazi» va  unda ko`rsatiladigan milliy turistik  xizmatlar orqali ming yillik tarixga ega an`analarimiz saqlanib qolinadi.

Kutilayotgan natijalar:

- Hududdagi ekoturistik xizmatlarni rivojlantirish—yurtimizga sayyohlar qiziqishini oshiradi;
- Turizmning ichki va kirish turlari faoliyati orqali  hududda turistik iqtisodiy ba`za yaratiladi;
- Dunyo mamlakatlari tomonidan tan olingan ekoturistik markaz faoliyati yillar sari kengayib, iqtisodiy va tabiiy salohiyati oshadi;
- Ekologik madaniyat va ekologik ong muhitida ulg`aygan yosh avlod tabiatni asrash uchun izlanishlar olib borib, uning har bir yaprog`ini asrash uchun ham bosh qotiradi.

**Qo`llash sohalari:**

Ekoturistik salohiyatga ega bo`lgan, suv resurslari mavjud hududlarda qo`llaniladi. Umumiy moliyalashtirishga bo`lgan ehtiyoj 300 mln so`m bo`lib quyidagi xarajatlarga sarflanadi:

*  Hudud tashqarisida sayyohlar hordiq chiqarishi uchun 16 ta yurta va bitta oshxona qurish uchun 270 mln so`m;*
** Sun`iy ko`l yaratish va ov turizmini tashkil etish uchun 2mln so`m;*
** Infratuzilma(maxsus yo`lakchalar, yo`nalishni ko`rsatuvchi belgilar,chiroqlar va ma`lumot taxtachalari,transport) yaxshilash uchun 28mln so`m.*

Loyiha xarajatlari 2-3 yil muddatda o`zini oqlab, hududni ekoturistik faoliyatini rivojlantiradi.

**3.1-rasm.“Ko`hna sahrodagi yangi dunyo yohud tabiat mo`jizasi” ekoturistik kompleksi chizmasi***








**Manba:** muallif loyihasidan namunalar.

Loyiham O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Fan va Ta`lim sohasida "Eng yaxshi innovatsion ishlanma" nominatsiya sifatida tan olinib, uni qo`llash borasida davlat garnd loyihalariga taqdim etish tavsiya etildi. Biz loyihani amalga oshirish maqsadida ekomarkaz bilan hamkorlikda davlat grantiga shu yilning yoz oyiga taqdim etishga tayyorlab qo`ydik.

Ushbu loyiha dasturini Qoraqir va Dengiz ko`l hududlarida ham qo`llashni tavsiya etgan bo`lardim. Yurtimiz bo`ylab, ekoturizmni yanada rivojlantirish borasidagi keying bir qadam bo`lib xizmat qilsa va Buxoroning turistik oqimi yanada oshsa, ajab emas.

Uchala hudud bo`ylab,aynan shunday ekoturistik komplekslarni yaratish va mahalliy sayyohlarni bunga jalb qilish kerak bo`ladi. Bunda biz kombinatsion

turlarni taklif etish orqali erishamiz,yani madaniy va ekologik turizm, madaniy va ov turizmi, sport va ekologik turizm kabi.

Barchamizga yaxshi ma`lumki, Dengiz ko`l hududi hali turistik dastur sifatida kiritilmagan. Ammo ov turizmiga qiziquvchi sayyohlar o`z sayohatlarini tashkillashtirib mashaqqat ila sayohatga chiqmoqdalar. Loyiha amalga oshsa, hududda sayyohlar dam olishi va ovqatlanishi uchun shinam muhit yaratiladi. Tabiatni sevuvchi insonlar haftalab qolib dam olishlari va ovchilik bilan shug`ullanishlari mumkin. Hudud tabiatiga zarar yetkazmaslik uchun har bir baliq ovi uchun ma`lum bir to`lov taklif etilsa kifoya.

Sayyohlar uzoq yo`ldan charchab kelib o`z yurtalarida dam olishadi va 2-3 soatdan so`ng baliq ovi bilan mashg`ul bo`lishadi. Qayiqlarda sayr qilishni xohlovchilar tungi ekskursiyani ko`l bo`ylab qayiqchalarda sayr bilan o`tkazishlari mumkin.

Ekoturistik cho`l zonalarida yurtalar qurish ham qulay va arzon yotoq bo`lib, u bizning yurtimiz iqlimi uchun juda mos. Ya`ni yoz mavsumida salqin, qishda esa iliq. Sayyohlar uchun esa unutilmas sayohat garovidir.

Ekoturistik kompleks yaratilgandan so`ng barcha hududlarimizga tashrif buyurish istagini bildiruvchi mahalliy va xorijiy sayyohlar soni ko`payadi. “Jayron” ekomarkaziga mahalliy sayyohlarni jalb qilish borasida kunlik “Ko`hna sahrodagi yangi dunyo”ekskursiya dasturini taqdim etmoqchiman. Bu kabi dasturlar mahalliy aholini hordiq chiqarishiga va ekologik bilimini oshirishiga katta yordam beradi. Ekoturistik kompleks qurilgandan so`ng kunlik emas hatto haftalik dasturlarni taqdim etsak ham bo`ladi.

**3.2-rasm.** “Ko`hna sahrodagi yangi dunyo” ekoturistik dasturi*




***Manba:** Ilmiy izlanishlar natijasi muallif tomonidan taqdim etilayotgan dastur.

**3.3-rasm.** "Ko`hna sahrodagi yangi dunyo" ekoturistik dasturi*

| Турпакет нархига киради: | Турпакет нархига кирмайди: |
|---|---|
| - Транспорт хизмати;<br>- Экомарказга кириш чиптаси;<br>- Овқатланиш (1 та тушлик);<br>- Экскурсавод хизмати; | - Дастурда кўрсатилмаган барча хизматлар. |

**Эслатма:**

**- фуқаролик паспортининг аслини олишни унутманг;**

**- дастурда ва саёҳат давомида кўрсатиладиган жўнаш ва ташриф буюриш вақтларига риоя қилиш саёҳатнинг бекаму-кўст ўтишини таъминлайди;**

**- об-ҳаво шароитига мос равишда, ҳамда яёв юриш учун қулай кийинишингизни тавсия этамиз;**

**- саёҳат билан боғлиқ барча ҳужжатлар (шартнома ва иловаси, саёҳат дастури) ёнингизда бўлсин.**



**Туроператор:** *Нутфилло Ибрагимов* +998907181970
**Турагент:** *Нилуфарбегим Хайруллаева* +998936208430

Экоцентр Джейран

**Экомарказ манзили:** ***Бухоро вил., Коровулбозор тумани,*** **Индекс: 200700**
**E-mail:** ecocenter.uz@gmail.com
**Тел: +998939600122**
**+998956043083**



***Manba:** Ilmiy izlanishlar natijasi muallif tomonidan taqdim etilayotgan dastur.

**Izoh:** Ekoturistik dastur “Jahongashta MCHJ” bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

Har bir yurt o`z tabiati bilan,har bir xalq esa o`z an`analari bilan farq qiladi. Shuningdek, biz yaratmoqchi bo`lgan sahrodagi yangi dunyo o`zining mo`jizakor

sayohatlari,betakror va yagona tabiati bilan e`tirof etiladi.

## 3.2. “Ko`hna sahrodagi yangi dunyo” ekoturistik marshrutidagi turoperatorlik xizmatlari va ularni tashkil etish shakllari

Turoperator – bu turistik paket ishlab chiqaruvchisi bo`lib, u turistik yo`nalishlar ishlab chiqish va turlar komplektatsiyasi bilan shug`ullanadi; ularning amal qilishini ta`minlaydi, reklamani tashkil qiladi, bu yo`nalishlar bo`yicha narxlarni hisoblaydi  va turlarni turistlarga bilvosita yoki bevosita sotadi.

Ekologik turizmda turoperator funksiyasi bir muncha murakkabroq deb hisoblayman, sababi tabiat yaratgan barcha tabiiy  boyliklarning yashash davri o`zgaruvchandir. Shunga ko`ra dasturdagi ekskursiyalar 4 faslda emas, balki hafta davomida o`zgarishi mumkin. Ikkinchi murakkablik, sayohat davomidagi gid muammosi bo`lib, tabiatimizdagi har bir hayvonot va o`simlik dunyosi madaniy tariximizni aytib berish uslubiyotidan farqa qiladi. Ya`ni ekskursiya davomida o`sha hududdagi hayvonot va o`simlik dunyosi haqida chuqur bilimga ega bo`lgan ekskursavod zarur bo`ladi.

Uchinchi murakkablik yurtimizdagi ekoturistik manzilgohlardagi infratuzilma muammosidir. Barcha sayyohlar ham yayov ekskursiya dasturida qatnasholmaydilar, sababi ekskursiya davomiyligi uzoq va ob-havo juda issiq bo`lib ketishi hamda ularning qulay transportga bo`lgan ehtiyojining qoniqtirilmayotganligidir. Shuning uchun ekoturistik dasturlarga qiziqish baland ammo ularni tashkillashtirish bir muncha susayib bormoqda.

Biz bunday muammolardan qochish maqsadida o`z sayohat dasturimizni bizning sharoitlarga ko`nikuvchan va o`rgangan mahalliy sayyohlarimizga taklif etmoqdamiz. Mahalliy sayyohlarning yosh qatlamiga ham katta e`tibor qaratib o`tdik. Ya`ni kollej va universitet talabalari va ularning ustozlariga taqdim etmoqdamiz. Turistik dastur Buxoro shahrida faoliyat yuritib kelayotgan yosh turoperatorliklarimizdan “Jahongashta tur servis” bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

Yuqorida aytganimizdek, ekoturizm sohasida turoperatorlik faoliyatining beqiyos o`rni bo`lib, turoperatorlik xizmatlari quyidagilarni o`z ichiga oladi:

1. Potenstial turistlarning ekoturlar va turistik dasturlarga bo`lgan talablarini o`rganish;

2. Prespektiv xizmat ko`rsatish dasturlari, ekoturlarni tuzish va ularning turistlar talablariga mos kelishini aniqlash maqsadida bozorda aprobastiyadan o`tkazish;

3. Ekoturlarga shartnoma asosida xizmatlar yetkazib beruvchilar bilan quyidagicha hamkorlik qilish:

* mehmonxonalardan turistlarga yashash uchun joy berishda;

* ovqatlantirish korxonalari bilan turistlarga ovqatlantirish xizmatini ko`rsatishda;

* transport korxonasi, firmasi va kompaniyalari bilan - turistlarga

transport xizmatini ko`rsatishda;

*ekskursion firmalar, muzeylar, ko`rgazmalar zallari, parklar va boshqa joylarda turistlarga ekskursion xizmatlarni ko`rsatishda;

* turli maishiy xizmatlar ko`rsatuvchi firmalar bilan turistlarga tegishli xizmatlarni ko`rsatishlarida;

* sport inshootlari ma`muriyati bilan turistlarning sport inshootlaridan foydalana olishlarida;

* shou, kino, video, teatr korxonalari menejerlari bilan turistlarning u erlarga borishlarida;

* qo`riqxonalar, bog`-xiyobonlar, ov va baliqchilik xo`jaliklari direksiyasi bilan u joylarda turistlar dam olishini va ularga xizmat ko`rsatilishini ta`minlashda.

4. ekotur, transtur qiymatini hisoblash va bozor holatini hisobga olgan holda narxlarni aniqlash. Turli tarkib klassi bo`yicha, ekoturlar komplektastiyasi bo`yicha o`z xizmatlariga narx va ta’riflarni belgilash;

5. Ekotur yo`nalishi bo`yicha sayohat qilayotgan turistlarni barcha zarur reklama-suvenir xarakteridagi materiallar, maxsus anjom va inventarlar bilan ta`minlash;

6. Yo`nalishda turistlar bilan aloqada bo`ladigan vazifalarni bajaradigan kadrlarni tanlash, tayyorlash va belgilash, xizmat ko`rsatish dasturlarining bajarilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish (gid-ekskursovodlar, instruktorlar, animatorlar, metodistlar va boshqalarni);

7. Iste`molchilarga o`z turistik mahsulotini yetkazishlari uchun reklama-informastion faoliyatlarni tashkillashtirish;

8. Turagentlik tizimi orqali iste`molchilarga turlarni yetkazish va sotish;

9. Xizmat ko`rsatishning sifati va ishonchliligini nazorat qilish;

10. Xizmat ko`rsatish jarayonida turistlar bilan doimiy tezkor aloqa, paydo bo`ladigan muammolarni hal qilish.

Turoperator turizm bozorida xizmatlar ishlab chiqaruvchilar va ularning iste`molchilari (turistlar) orasidagi pozistiyani egallaydi. Uning vazifasi alohida ishlab chiqaruvchilar xizmatlarini, ham asosiy xizmatlar, ham qo`shimcha xizmatlar sifatidagi turmahsulotni kompleks ko`rinishida iste`molchilarga yetkazib berishdan iboratdir.

“”Ko`hna sahrodagi yangi dunyo” ekoturistik dasturida biz sayyohlarga quyidagi xizmatlarni taklif etmoqdamiz:

- ✓ Transport xizmati(barcha qulayliklarga ega avtobus);
- ✓ Ekomarkazga kirish chiptasi;
- ✓ Hudud hayvonot va o`simlik dunyosi bilimini chuqur o`zlashtirgan ekskursavod xizmati;
- ✓ Go`zal ko`l hududida pik-nik

Ekoturistik dasturni shakllantirishda quyidagi ishlarni amalga oshirdik:

- Sayyohlar qatlamini izlash(Buxoro Turizm kolleji va Buxoro Davlat Universiteti talaba va o`qituvchilari);
- Sayyohlar qatlamiga ko`ra reklama ishlarini olib borish(dars jarayonlarida har bir guruhga ekoturistik dastur haqida qisqacha

semiarlar o`tkazish, har qavatda reklama e`lonlarini joylashtirish);

- Sayyohlar va turoperatorlik bilan o`zaro shartnomalar tuzish;
- Sayohat davomida pik-nik uchun ketadigan barcha xarajatlarni hisoblab, “lunch box”(tushlik qutisi)lar tayyorlab berish uchun savdo markazlari bilan o`zaro hamkorlik kelishuvini tuzish;
- Sayohat davridagi transport xizmatiga bo`lgan ehtiyoj zarurligi tufayli, mahalliy aholiga xizmat qiluvchi barcha qulayliklarga ega 30 kishiga mo`ljallangan Transport MCHJ korxonalari bilan shartnoma tuzish;
- Yo`l davomida talabalar vaqtini unumli o`tkazish maqsadida ekomarkaz tarixi va faoliyatiga doir afsonlaridan iborat animatsion video rolikni ishlab chiqish;
- Sayohat davri muammosiz o`tishi va dastur rejali kechishi uchun ekomarkaz rahbariyatini sayohatdan bir kun avval ogohlantrish.

